Также важно обеспечить учащихся доступом к разнообразным языковым и культурным ресурсам, проводить межкультурные обмены и тренинги, активно работать над формированием у учащихся открытости, толерантности и уважения к различным культурам.

Список литературы:

1. Иванова Н.К. Современные интерактивные средства в процессе обучения иностранному языку в школе // Научные труды Московского гуманитарного университета. – 2018. – № 4. – С. 99–105.
2. Иванова О. В., Ахметшина Ю. И. Использование интерактивных средств обучения в процессе развития языковой компетенции на уроке английского языка в школе // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2021. – № 8. – С. 178–181.
3. Ильина Е.А. Развитие умений письменной речи учащихся средней школы на уроках английского языка // Вестник Тамбовского государственного университета им. Г.Р. Державина. – 2013. – № 11. – С. 1–4.
4. Иценко И.А. Особенности креативной педагогики интенсивного английского языка в начальной школе // Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2014. – №5. – С. 115–120.
5. Петрова В.А. Гендерные особенности обучения грамматике английского языка детей младшего школьного возраста // Вестник Новгородского государственного университета. – 2017. – № 42. – С. 10–12.

Zahriddin Muhammad Bobur orzu-armonlari ifodasi Bobur mirzo asarlari talqini xususida

O’zbekiston IIV 2-sonliToishkent akademik litseyi tarix fani o’qituvchisi Meyliyeva Saodat Ismatovna.

... Siz Samarqand shahriga borganmisiz...Naqadar qadimiy, naqadar ulug’vor va salobatli bu shahar. Shahar ko’chalarida yursangiz ayniqsa Registon maydonidagi Sherdor madrasalari, Ulug’bek madrasasi va Tillakori madrasasi



salobatidan ruhingiz to’lqinlanib ketadi. Ana, Sherdor madrasasi ikki burchida ohu quyoshga intilmoqda... U ilm-ziyo manbai, uning ortidan sherning bolasi ohuni quvib quyoshga intilmoqda... Ehhey, buni tasvirlagan usta ota-bobolarimizning tasavvur olami naqadar keng, fikrlash dunyosi naqadar teran... ta’lim dargohiga hurmati cheksizligi ustaning ilm-ziyo manbai to’g’risida tasavvuri aniq ravshan bayon etilgan . Bu tosh ko’chalarda kimlarning oyog’i yetmagan deysiz... Buyuk sarkardalar Aleksandr Makedonskiy deysizmi, AmirTemur deysizmi, Mirzo Ulug’bekmi, Alisher Navoiy deysizmi...Mirzo Boburmi....-Ehhey kimlarni qancha davru-davronlarni ko’rmadi bu shahar. Aleksandr Makedonskiy bu shaharni bo’ysundirmoq uchun 4-5 marta urinsada Spitamendek dovyurak yigitlari bor-bu mag’rur shaharni bo’ysundira olmagan edi...



Buyuk AmirTemur Samarqandni o'ziga poytaxt etib jahon fan va madaniyatining markaziga aylantirdi. U davlatni mo'g'ul zulmidan qutqarish va mamlakatni obod etish uchun necha bor Samarqandning qadimiy ko'chalarini kezdi ekan...Buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek necha kunlar, necha tunlar Samarqand osmonida yulduzlar sanab Ulug'bek Akademiyasida yuzlab olimlarga bosh bo'lib matematik, geometrik, trigonometrik va astronomiyada ilmiy tadqiqotlar o'tkazmadi deysiz..."Zichi jadidi Ko'ragoniy"dek 1018 ta yulduzlar jadvalini, ularning joylashgan o'rnini aniqlashning o'zi bo'lmagandir. Buyuk bobosi AmirTemurdek zotga munosib farzand bo'lish uchun 40 yil davlatning osoyishtaligi va barqaror ilm-fan taraqqiyotini ta'minlashning o'zi bo'lmagandir. Bu yo'lda qancha din peshvolari qarshiligini yenga olgan ekan.Ulug' bobosiga munosib farzand bo'lish uchun qancha tunlarniSamarqand ko'chalarida bedor o'tkazdi ekan. Yosh Alisher Navoiyning yoshligi, hayotining eng yorqin damlari Hirotdan Samarqandga ilm istab Samarqand va Karmana ko'chalari bo'ylab Ulug'bek madrasalari ostonasida g'azallar yodlab necha kunu-tunlarni uyqusiz o'tkazdi ekan. 12 yoshli Zahriddin Muhammad Boburni eslang...Ota-bobolariga munosib farzand bo'lish uchun juda katta mashqqqatli hayot yo'lini bosib o'tdi va jahon taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shib Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solib buyuk Amir Temur sulolasining munosib davomchisi bo'la oldi...

... 1494 yil erta tong Amir Temurning o'g'li Mironshoh avlodidan bo'lgan Umarshayx mirzo Farg'ona hukmdori bo'lsada Samarqand atrofida temuriyzodalar o'rtasida taxt talashishlar uni bezovta qilardi. Tunlarini bedor o'tkazgan Umarshayx mirzo yoz tunlarining birida tong sahar kabutarlari parvozini tomosha qilish uchun Axsi qal'asi devoriga ko'tarildi. Kabutarlarini kuzata turib behosdan qal'a devoridan yiqilib tushadi va vafot etadi. Oradan fursat o'tib Farg'ona hukmdori bo'lgan otasining ishini davom ettirish bosh farzand bo'lgan Zahriddin Muhammad Bobur 11-12 yoshli shahzoda zimmasiga tushdi.

Ba'zan shu mavzu haqida gapira turib o'ylanib qolaman va o'quvchilardan so'rayman : -11-12 yoshli bolalar nechanchi sinf bo'lardi?

-5-6-sinf o'quvchilari bo'ladi, ustoz deyishadi-o'quvchilar.

-Demak, shu yoshida murg'ak go'dak buvisi Eson Davlatbegim, onasi Qutlug'nigorxonim ukalari Jahongir mirzo va Nodirshoh mirzo,opasi Xonzodabegim,barcha saroy ahli, butun Farg'ona va Andijon xalqining tinchligi va xavfsizligini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan ekan-a?

Ha bunday mas’uliyatni his etish faqat sheryurak kishilarga xos,uning uchun “Bobur” bo’lish kerak edi... Zamon shuni talab qilar edi. Yosh shahzodaning bolaligi allaqachon tugagan edi...

O’g’lining vafotidan kuyingan ,chorasiz qolgan Eson Davlatbegim Zahriddin Muhammadga murojaat qilib;-Bobongiz taxtini qutqaring bolam, bo’lmasa barchamizning hayotimiz xavf ostida qoladi. Hatto shoh otangizni taxti ham siz uchun omonat....Ukangiz Jahongir mirzo tarafdorlari undan umidvor..Yoki otangizni hududini ikkiga bo’lish kerak...

Katta onasining bu so’zi yosh Bobur mirzoni yurak bag’rini ezib yubordi.

_Yana bo’linishmi? Yo’q bo’linish emas, taxtni birshtirish, kengaytirish butun Movarounnahrni birlashtirish kerak, shunda barcha urushlarning oldi olinur.

“Taxtni birlashtirish kerak” deb o’ylardi Bobur mirzo....



Buvisi Eson Davlatbegim va onasi Qutlug’nigorxonimning bu iltijoli nidosi yosh Bobur mirzoni qandaydir chora ko’rishga undardi. U o’z tengdoshlari va yosh yigitlarni yig’ib tinmay harbiy mashqlar o’tkazar, ba’zan ikki yosh bolani ikki yelkasiga qo’yib qal’a bo’ylab yugurib mashq qilar, qilch o’ynatib o’rtoqlari bilan ot ustida tinmay nayzabozlik qilar edi...

Uning murg’ak qalbi o’z g’am-anduhlarini bu ojizalarga ayta olmasdi.U ham otasi kabi qo’liga qalam olib butun his hayajonlarini o’z ruboiy va g’azallarida bayon etdi .Keyinchalik bu daftaru-davotlari va qalami bir umr Z.M Bobur mirzoning hayot yo’llarida hamroxi eng yaqin sirdoshi bo’lib qoldi.....

Charxning men ko’rmagan jabru-jafosi qoldimu?

Xasta ko’nglim chekmagan dardu-balosi qoldimu?

Mani xor ettiyu qildi o’zni muddaiyg’a parvarish....

Dahru-dun parvarni o’zga muddaosi qoldimu?

(Davomi bor....)

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.Z.M.Bobur “ Boburnoma” T-1993yil

2.P.Qodirov “Yulduzli tunlar”T -1972 yil

3.P.Qodirov “Humoyun va Akbarshoh” T-2015y

MOTIVATSIYA VA UNING SPORTCHILAR FAOLIYATIDAGI O‘RNI

Urganch Davlat Universiteti
Psixologiya yo‘nalishi Magistratura bosqichi
241 – guruh magistranti
Abdullayev Faxriddin Kamoladdin o‘g‘li

Bugungi kundagi zamonaviy sport faoliyati, milliy va xalqaro musobaqa jarayonlaridagi yuqori raqobat va muvaffaqiyatga erishish talablari ancha murakkab bo‘lgan muhitda yosh sportchilarning faolligini rag‘batlantirishda motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tezisda, motivatsiyaning sportchilar faoliyatiga ta’siri, uning turlari, o‘zbek hamda chet el psixologik adabiyotlari tahlili orqali bu masalaning ilmiy asoslari ko‘rib chiqiladi.

Motivatsiya - bu ichki va tashqi omillar ta’siri ostida sportchini harakatga keltiruvchi sabablar yig‘indisi. **Motivatsiya** insonning faoliyatini, xatti-harakatlarini va qaror qabul qilish jarayonlarini boshqaruvchi kuch sifatida tushuniladi. U turli xil motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Motivatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi:

1) Ichki motivatsiya

2) Tashqi motivatsiya

Ichki motivatsiya sportchini o‘z qiziqishlari, hissiyotlari va ehtiyojlari asosida harakat qilishga undovchi sababdir. Masalan, sport o‘yinlariga qiziqish, futbol o‘ynash, fitness klublariga qatnash.

Tashqi motivatsiya esa tashqi omillar, masalan, mukofotlar, e’tiroflar va turli imtiyozlar orqali sportchini harakatga undovchi motivatsiya turidir.

A.N.Leontev fikricha motiv inson faoliyatiga yo‘nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo‘zg‘atadigan voqelik. A.Maslouning fikricha motiv bu – ehtiyojlar yig‘indisidir. Eng keng tarqalgan ta’riflarga ko‘ra motiv – bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig‘indisidir. **Ehtiyoj** kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma’lum ijtimoiy mavqega ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlar, faoliyatlar yig‘indisidir.

Inson bir vaqtning o‘zida bir nechta ehtiyojlarga ega bo‘lishi mumkin. Ba’zi ehtiyojlar qisqa muddatda qondirilishi mumkin, ba’zilarini qondirish uchun esa yillar kerak bo‘ladi. Bunga sportchining 4 yilda bir marta bo‘ladigan jahon chempionatlarida qatnashishi va g‘alaba qozonishiga bo‘lgan ehtiyojini misol qilib keltira olamiz.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda sportchi faoliyatida motivatsiyaning asosiy rol o‘ynashini tushunishimiz mumkin . Biron bir bellashuv yoki mashg‘ulot oldidan ishtirokchilarga ya’ni sportchilarga murabbiy tomonidan motivatsiya beriladi. Bunda murabbiy yetarlicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘z ishining mutaxassisi bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki kuzatuvchanlik va boshqaruvchanlik qobiliyati yaxshi bo‘lgan trenergina o‘zi ustozlik qilayotgan sportchining shaxsiy va irodaviy sifatlari, shu bilan birga motivatsiyasi haqida to‘liq bilimga ega bo‘ladi va sportchini sport mashg‘ulotlari yoki musobaqalarga to‘g‘ri yo‘naltira oladi. Boshqa tomondan biron bir jamoaviy o‘yinlar oldidan ham bu hodisani yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Ko‘pincha o‘yin oldidan (asosan raqib jamoa kuchli bo‘lsa) murabbiy jamoaning jangovor holatini ko‘tarish, jamoadagi motivni kuchaytirish uchun suhbat o‘tkazadi va jamoani o‘yinga yoki musobaqaga tayyorlaydi.

Sport motivatsiyasi sportchi uchun sport muhitidagi raqobatga bardosh berish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish va muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega. Raqobat sportchilarning harakatlarini shaffoflashtirib, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi. Garchi kuchli motivatsiya sportchilarning faoliyatini rag‘batlantirsa-da, bu ham ba’zi hollarda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Motivatsiyaning oshishi hayajon va taranglikni kuchaytirishi mumkin, shuning uchun faqat motivatsiyaga tayanish muvaffaqiyat uchun yetarli emas.

N. B. Stambulovaning fikriga ko‘ra, motivatsiya uch darajali piramida sifatida tasvirlanishi mumkin. Bu piramidaning eng past qismida ehtiyojlar turadi, ular turli vaziyatlar motivlari bilan bog‘liqdir. Ehtiyoj va motivlar har qanday faoliyatni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchi darajada esa shaxsning moyilliklari, qiziqishlari, ideallari va qadriyatlari joylashgan. Bu daraja odamni sportga kirishga undaydi. Piramidaning yuqori qismida dunyoqarash va hayotiy maqsadlar joylashgan bo‘lib, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri insonning hayot tarzini belgilaydi.

Motivatsiya va maqsadlar sportchilarning faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. N. B. Stambulovaning motivatsiya piramidasidan kelib chiqqan holda, sportchilarni rag‘batlantirish, ehtiyojlarini qondirish va o‘z qiziqishlariga asoslangan holda ularni muvaffaqiyatga erishishlarini ta’minlash mumkin. Motivasiyalarning ko‘plab jihatlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, sportchilarni yuksak natijalarga erishishga, harakatlarda qat’iyatli bo‘lishga va murakkab vaziyatlarga qarshi tura olishga undaydi. Shu tarzda, sport motivatsiyasi nafaqat individual natijalar, balki sport faoliyati va undagi erishilgan maqsadlar orqali ham shakllanadi. Sportchilarning

psixologik xususiyatlari, irodaviy fazilatlari va motivatsiya darajalari muvaffaqiyatga olib boruvchi muhim omillar sifatida qabul qilinadi.

Sportchilar faoliyatida motivatsiyaning yana bir ko‘rinishi bu ulardagi muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasidir. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ustunlik qiladigan sportchilarda tashvishlanish darajasi past, maqsadlarga erishishda qat’iyatlilik darajasi yuqori, o‘z harakatlarining to‘g‘riligiga ishonch, mustaqillik, raqobatga intilish, qiyin vazifalarni bajarish va ularni hal qilish qobiliyati ustunlik qiladi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yuqori bo‘lgan sportchilar hujumkor harakatlarni bajarishni afzal ko‘radilar. Yuroqi malakali sportchilar orasida muvaffaqiyatga erishish motivi muvaffaqiyatsizlikdan qochish motividan ancha kuchliroq bo‘ladi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi ustunlik qiladigan sportchilarda esa tashvishlanish darajasi yuqori bo‘ladi. Bu sportchilar o‘zlariga nisbatan ishonchsiz va maqsadga erishish jarayonida o‘z faoliyatlarini to‘xtatish yoki cheklashga moyil bo‘ladilar. Bu motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan sportchilar o‘z natijalari orqali boshqalardan ortiqcha tanqid yoki salbiy fikrlar olishdan qo‘rqishadi. Bu holatlarda ular muvaffaqiyatga erishishga harakat qilsalar ham yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ichki salbiy hissiyotlar ularni tormozlanish holatlariga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki motivatsiya sportchilar faoliyatida katta ro‘l o‘ynaydi. Ularning doimiy ravishda sog‘lom psixologik muhitda bo‘lishlari muntazam sport mashg‘ulotlari bilan band bo‘lishlarida, o‘z ustida ishlashlarida va musobaqalarda yurori natijalarni egallashlarida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. –T.; “Universitet”, 2010 y.
2. Ilyin E.P. Motivatsiya va motivlar. SPb: Piter, 2000 yil
3. Brayn Treysi Motivatsiya 2015 yil 5. Ilyin E.P. Psixologiya sporta 2008 yil
4. Abdullayeva, G. (2017). O‘zbek sportchilari uchun motivatsiya asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.
5. Khaydarov, U. (2019). Sport psixologiyasi va uning ahamiyati. O‘zbekiston Milliy universiteti.
6. Weiner, B. (1992). Human Motivation: Metaphors, Theories, and Research. Newbury Park: Sage Publications.

Mahalliy budjet daromadlarini kengaytirishda raqamli transformatsion sharoitning zarurligi va ahamiyati

Zikirov Samandar Usmonovich

Termiz davlat universiteti magistratura bosqichi talabasi

«Mahalliy budjetlarning daromadlarini kengaytirish va tashkil qilishda asosan mahalliy budjetlar shakllanishi va foydalanishning barqarorligini ta’minlash masalalarini mustahkamlash»[1] , mahalliy moliyaviy manbalari oshirish bugungi kunda eng muxim hisoblanadi. «Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi galda, davlat mablag‘larini taqsimlashda va ijtimoiy iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko‘rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo‘lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rolni o‘ynaydi»[2] .

Dastur o‘ziga qamrab olgan, o‘z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimizning mahalliy budjetlarni moliyaviy hamda iqtisodiy, budjet, «bank-kredit tizimining barqaror ravishda hamda uzluksiz tizimda ishlashini ta’minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarga yordam ko‘rsatish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning»[3] puxta ishlab chiqilgani o‘zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatda ham deb bejiz aytilmagan. O‘zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy budjetlar tashkil etadi[4] .

Hududiy mahalliy budjetlar O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotining munosabatlarining shakllanishiga oid tub iqtisodiy islohotlar

[1] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[2] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[3] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[4] Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat byudjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo`nalishlari // O`zbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to`plami. 2017 yil 10 noyabrь. –T.: TDIU, 2017. -b.27-28.

o‘tkazilishini budjet tizimida, jumladan, mahalliy budjetlar ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog‘liqdir. Islohotlar chuqurlashishi bilan mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan chora-tadbirlar hajmi oshaveradi, shuningdek, ular ixtiyoriga qoladigan daromadlar ham kengayaveradi. “Bizning respublikamiz sharoitida raqobatli muhitni shakllantirish avvaligi tizimdan bizga meros bo‘lib qolgan sun’iy monopol tuzilmalarni yo‘q qilish bo‘yicha qat’iy chora tadbirlarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda asosan istagan tarmoq yoki korxona monopolist edi[5] .

«Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi»[6]

«Mahalliy budjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar mahalliy budjet mablag‘larning egasi sifatida amaldagi me’yoriy hujjatlarga asoslanib»[7] , Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mahalliy budjetlar va Toshkent shahar budjetlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash asosiy ahamiyatga ega. Jumladan, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va xizmat kursatish hisobidan amalga oshirilayotgan loyihali ko’paytirish xam asosiy hisoblanadi.

Mahalliy budjet ob’ektiv iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta’minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. O‘zbekiston Respublikasining davlat budjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining har bir bo‘g‘ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo‘ljallangan turli pul jamg‘armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o‘ziga xos vazifalarni bajaradi.

[5] https://lex.uz/docs/3255436
[6] http://elibrary.ru/item.asp?id=42215731
[7] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimida tumanlar va shaharlar mahalliy budjet daromadlarida budjet tushimini ortishiga, balki mamlakat ishbilarmonlik muhiti hamda investitsion jonlanishiga turtki bo‘ladi. Bu borada davlat moliya organlari, investitsiya vazirligi organlari hamda moliya-kredit tashkilotlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Haqiqatdan ham, budjet «bu turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo‘lib, u tegishli davlat yoki mahalliy hokmiyat tomonidan ishlab chiqilgan hamda taqsimlangan yuridik hujjatdan iborat»[8] deb ta’rif berilishida aynan mahalliy budjetlarning o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

«Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi»[9] . «Mahalliy davlat hokimiyati idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli budjetlarni tasdiqlash va ijrosini ta’minlashdan iborat»[10] . Shuningdek, «O‘zbekistonda mahalliy budjet daromadlari va harajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi[11] .

Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish birinchi navbatda boshqaruv tizimi tarkibini o‘zgartirishni va bu jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi. Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag‘larga ega bo‘lishlari bilan bog‘liq. Albatta, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi-mahalliy budjetlar hisoblanadi.

[8] http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31489498&mode=p&age=2
[9] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211

[10] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[11] Mamanazarov A. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtor. – T.: 2002. – 22 b

«O‘zbekiston Respublikasi jamlangan budjetining ko‘rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Jamlangan budjet ko‘rsatkichlari hisobisiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko‘pgina ko‘rsatkichlari jamlangan budjetdan olinadi»[12] . «Mamlakatimizda budjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning xukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko‘tarishga sabab bo‘layotgan qator omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin»[13] .

«Masalan, mahalliy moliya organlarining budjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida budjet xarajatlarini to‘g‘ri va oqilona tarzda sarflanishi va budjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag‘batlantirishni ta’minlashdir»[14] . «Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig‘imlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy budjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig‘imlar tashkil etadi»[15] . «Unitar tuzilishga ega bo‘lgan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bosqichdan, davlat budjeti va mahalliy budjetlardan iborat. Federal tuzilishga ega bo‘lgan mamlakatlarda budjet tizimi uch bo‘g‘indan iborat. Mahalliy budjetlar davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi»[16] . Mahalliy budjetlar xarajatlarida asosiy o‘rinni ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.

«Jamlangan budjetning ko‘rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim o‘rinni egallaydi»[17] . «Ayniqsa, budjet sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

[12] http://uz/denemetr.com/docs/769/index-111169-1.htmi
[13] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[14] http://uz/denemetr.com/docs/769/index-111169-1.htmi
[15] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[16] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[17] http://uz/denemetr.com/docs/769/index-111169-1.htmi

Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal budjetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng mana shu o‘tgan davr ichida chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shunindek, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy budjetni shakllantirish va ijro qilish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda»[18] . Chunki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog‘liqdir. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi[19] .

Shu o‘rinda, 2020 yilda Oliy Majlis Davlat budjetini Qonun shaklida qabul qildi. Mahalliy budjet daromadlari hamda budjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarni tasdiqlashni nazarda tutuvchi yangi budjet taqvimi joriy qilinda. Bu vazirlik va idoralarga dasturlar va investitsion loyihalarni mahalliy budjet daromadlari rejalashtirish imkonini berib, investor va soliq to‘lovchilarga o‘zlarining biznes-rejalarini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan «mahalliy budjet harajatlariga mablag‘lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag‘larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajat qilgunga qadar bo‘lgan butun davr mobaynida yuz beradi»[20] .

«Mahalliy resurslarni samarali boshqarish, munitsipal iqtisodiyot sub’ektlarining o‘zaro aloqalarini muvofiq ravishda tashkil etish, ishbilarmonlik faolligini oshirish, hamda munitsipal xizmatlar ko‘rsatish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida har bir sohada iqtisodiy islohotlar»[21] ham amalga oshirilmoqda.

[18] http://uz/denemetr.com/docs/769/index-111169-1.htmi
[19] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g‘risidagi»gi PF-4947-sonli Farmoni.
[20] http://uz/denemetr.com/docs/769/index-111169-1.htmi


[21] http://uz/denemetr.com/docs/769/index-111169-1.htmi

Mahalliy iqtisodiyot integratsiyalashuvi jarayonida bozor iqtisodiyotining mamlakatimizda ham davlat moliyasini boshqarishni doimiy tarzda takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Respublika va barcha mahalliy budjetlari o‘rtasidagi munosabatlarni, bog‘liqligini yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iqtisodiy rivojlantirishda ular o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosib raqobatbardoshlikka mumkin qadar barham berishdan iborat.

1.2.1-rasmda keltirilgan Mahalliy budjetlar daromadlarining tasnifi va tavsifida asosan davlat idoralari tomonidan undirilayotgan davlat boji, jarima va boshqa soliq bo‘lmangan yig‘imlar va boshqa tushumlarni amalga oshirish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy budjet faoliyatini hamda mahalliy budjet daromadlari bazasini o‘rganib chiqish va tahlil qilish zarurdir. Yuqoridagi mazkur holatlar mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning oqilona yo‘llar topishni taqoza etadi, bu tanlangan ilmiy tadqiqot ishimizning dolzarbligi ham ko‘rsatadi. Mahalliy budjetdan tushgan daromadlarini tartibga solish amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, haligacha eski usuldan foydalanish bozor iqtisodiyotini o‘sishini sekinlashtiradi.

1.2.1-rasm.

Mahalliy budjetlar daromadlarining tasnifi va tavsifi[22]



“Ya’ni qat’iy soliqlar avval davlat budjetiga, undirilib, so‘ngra uning ma’lum bir foizi (har yili qayta ko‘rib chiqilgan holda) mahalliy budjetlar daromadlarini moliyalashtirishga yo‘naltirilmoqda. Bizningcha, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar amalga oshirilayotgan davrda belgilangan foizlarga kamida 5 yil davomida o‘zgartirish kiritilmasligi lozim.

Bundan tashqari umumdavlat soliqlaridan tushadigan tushumning ulushi bu soliqlardan ajratiladigan foiz miqdori budjet daromadlarini mustahkamlanishi ta’minlanadi shundagina mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy manfaatdorligi oshib, ularning budjet daromadlari mahaliy budjetlar xarajatlarini rejalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rejadagi daromadlaridan kelib chiqadi, hududlar esa o‘z xarajatlarini rejalashtirishda ehtiyojlaridan kelib chiqiladi. Budjet jarayonida mahalliy budjetlarning eng maqbul bo‘lgan harajatlar rejasi aniqlanadi,

[22] Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bu reja esa mahalliy budjetning daromadlar ba'zasidan kelib chiqadi. Ba'zi kundalik takroriy salbiy holatlarni bartaraf etishda maqsadli mahalliy budjetlar xarajatlarni me'yor asosida amalga oshiriladi. Mahalliy budjetlar o'zini moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning ba'zaviy daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim. Buning uchun daromad olishni markazsizlashtirish lozim, «bu esa mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy ba'zani rivojlantirishda va o'z o'rnida tegishli bo'lgan hududlarga investitsiya kiritishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini ko'paytiradi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy soliqlar va tushumlar doirasida moliya siyosatini yurgizishda imkoniyat berilishi resurslarni samarali boshqarishga rag'bat uyg'otadi»[23] .

Mahalliy budjetlarni kreditli tizimga qo'yishda moliyaviy qarorlar qabul qilishi vaqtidagi har bir qaror, xoh u investitsiyalash, xoh moliyalashtirish yoki aylanma kapitalni boshqarish masalasi bo'lsin, muayyan ishlab chiqarish texnologiyasiga, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tizimi, soliq tizimi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyat yuritadigan raqobat muhiti kabi omillarga bog'liq. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tanlaydigan moliyaviy siyosat variantlari ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot daromad va xarajatlarni faqat moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritilgan ko'rsatkichlar asosida baholashga yo'l qo'ymaydi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot "hisoblash usuli" deb ataladigan buxgalteriya printsipi asosida tuziladiki, unga ko'ra har qanaqa daromadni pul mablag'lari tushumi deb bo'lmaydi va har qanday xarajat ham – pulni sarflash hisoblanmaydi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettirilgan sof foyda summasi, ko'p jihatdan, kompaniyada shu ko'rsatkichni baholash uchun qabul qilingan yondashuvga, masalan, tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullariga yoki firmaning moddiy va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning normativ (me'yoriy) muddatlariga bog'liq.

[23] http://elibrary.ru/item.asp?id=22903436

Mahalliy budjetlarni o‘rta kreditli oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda esa, unda ko‘rsatilgan ma’lumotlar xo‘jalik yurituvchi sub’ektda qabul qilingan hisob siyosatiga bog‘liq emas. Shunday qilib, ushbu ikki hisobot o‘rtasidagi farqni o‘rganar ekan, tahlilchi firmada qabul qilingan hisob siyosati firmaning moliyaviy ko‘rsatkichlariga qay darajada ta’sir qilishini aniqlashi mumkin.

«Mahalliy budjetlarni daromadlarini kengaytirish borasida mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash, tuman va shaharlar kesimida budjetga tushumlar oshirish lozim»[24] :

1. «Mahalliy soliqlar bo‘yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining (shahar va tumanlar) budjet vakolatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiq. Bunda, mahalliy soliqlarning qat’iy tumanlarga tushumi bo‘yicha qonuniy chegaralar belgilash lozim. Bu har bir mahalliy davlat hokimiyati organlarining hudud soliq bazasini kengaytirish, hudud budjet-soliq salohiyatini yuksaltirishdan manfaatdorligini oshiradi»[25] .

2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirish zarur. Stavkaning pasaytirish evaziga yalpi ichki mahsulotning oshishi natijasida yo‘qotilgan soliq tushumini qoplash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

3. Real sektor korxonalarida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlovchi investititsion faoliyatni jadallashtirish zarur. Ushbu holat QQS bo‘yicha soliq bazasini kengayishi uchun asos hisoblanadi.

4. Mahalliy budjet bazaga qayta qo‘shiluvchi xarajatlar tarkibini qisqartirish va yirik korxonalar uchun ixtiyoriy homiylik to‘lovlarini to‘liq foyda solig‘i bazasidan chegirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, investitsion chegirmalarni tubdan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish maqsadga muvofiq.

5. Hududlarda yirik real sektor korxonalarida asosiy vositalar qiymat yuqori ekanligida mol-mulk solig‘i stavkasining oshishi bilan soliq yuki oshib

[24] http://elibrary.ru/item.asp?id=23215211
[25] http://elibrary.ru/item.asp?id=22903436

borayotganligini e’tiborga olib, ushbu korxonalarda ishlab chiqarishda (tijorat maqsadida) foydalaniladigan va ishlab chiqarishda foydalanilmaydigan asosiy vositalardan kelib chiqqan holda mol-mulk solig‘i stavkalarini tabaqalashtirish maqsadga muvofiq. Bu orqali ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy vositalarga investitsiya qilishni rag‘batlantirishga erishiladi.

6. Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlashda sub’ektlari faoliyatini yanada jadallashtirish lozim. Kichik biznes sub’ektlari tomonidan yaratilgan har bir ish o‘rinlari uchun yagona ijtimoiy to‘lovning regressiv stavkalarini joriy etish va sug‘urta badalidan muddatli imtiyozlar tatbiq etish maqsadga muvofiq.

7. Hududlarda dam olish va turistik maskanlarni mavjudligi va bu borada salohiyatining yuqoriligini e’tiborga olib, turistik bazalarni, dam olish oromgohlarini tashkil etish uchun investitsiyalarni kengroq jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Allamova Oyshajon G‘afurjon qizi
Psixologiya yo‘nalishi 241-guruh

Annotatsiya:

Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtidorli talabalar nafaqat yuqori akademik ko‘rsatkichlarga erishadilar, balki ijodiy fikrlash, innovatsion g‘oyalar yaratish va yangi yechimlar ishlab chiqishda ham o‘zlarining salohiyatlarini namoyon etadilar. Ushbu tezisda iqtidorli talabalarni aniqlashda foydalaniladigan psixologik va pedagogik metodlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va ta'lim jarayonida qanday yondoshuvlarni qo‘llash kerakligi tahlil qilinadi. Maqola iqtidorli talabalar bilan ishlashda samarali yondoshuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, ta'lim tizimida iqtidorli talabalarni rivojlantirishga oid takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: ixtidorli talabalar, ta'lim jarayoni, psixologik metodlar, pedagogik yondoshuvlar, ijodiy fikrlash, salohiyatni rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar, mustaqil ishlash, talaba xususiyatlari, individual yondoshuv.

Kirish:

Iqtidorli talabalar har bir ta'lim tizimining asosiy resurslaridan biri bo‘lib, ularning ilmiy salohiyatini to‘g‘ri aniqlash va rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Iqtidorli talabalar nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishda yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar, balki yangi g‘oyalar yaratish, innovatsion yechimlar ishlab chiqishda ham o‘z salohiyatlarini namoyon etadilar. Shu sababli, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish, o‘qituvchilarga ularga mos pedagogik yondoshuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Iqtidorli Talabalarni Aniqlash:

Iqtidorli talabalarni aniqlash – ta'lim jarayonida ularning ilmiy salohiyatini baholashning muhim bosqichlaridan biridir. Iqtidorli talabalarni aniqlashda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- **Yuqori intellektual salohiyat:** Iqtidorli talabalar o‘zlarining intellektual qobiliyatlari bilan ajralib turadilar. Ular tez o‘zlashtiradilar, murakkab masalalarni

tez va samarali hal qiladilar. Bunday talabalar har bir yangi ma'lumotni qabul qilishda yuqori tezlikka ega bo‘ladi.

- **Kreativlik va innovatsion fikrlash:** Iqtidorli talabalar oddiy va ko‘p ishlatiladigan yechimlardan tashqari, yangicha va innovatsion g‘oyalar ishlab chiqishadi. Ular yangi bilimlarni yaratishda va mavjud bilimlarni kengaytirishda yuqori darajaga erishadilar.
- **Mustaqil ishlash qobiliyati:** Iqtidorli talabalar o‘z bilimlarini faqat o‘qituvchi tomonidan berilgan materiallar asosida emas, balki mustaqil ravishda o‘rganishga ham qodir. Ular o‘zini o‘zi boshqarishda va o‘rganishda mustahkam ko‘nikmalarga ega.
- **O‘zini anglash va yuqori motivatsiya:** Iqtidorli talabalar o‘z salohiyatlarini yaxshi anglashadi va bu ularning bilim olish jarayonidagi yuqori motivatsiyasini shakllantiradi. Ular yangi bilimlarga intilishadi va ilmiy faoliyatga qiziqish ko‘rsatadilar.
- **Muammolarni hal qilish qobiliyati:** Iqtidorli talabalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirgan holda, murakkab masalalarni hal qilishda o‘zlarining tahliliy va analitik qobiliyatlarini namoyon etadilar. Bunda ular mavjud axborotlarni tahlil qilib, yangi yondoshuvlarni ishlab chiqishadi.

Mavzuning Dolzarbligi

Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish ta'lim tizimida dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatda ilmiy, texnologik va madaniy rivojlanishning tez sur'atlar bilan davom etishi, yangi innovatsiyalarni yaratish va mavjud bilimlarni takomillashtirishga ehtiyojni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni ilmiy faoliyatga jalb qilish, yosh avlodning salohiyatini to‘liq amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Iqtidorli talabalar ta'lim tizimining yuksalishiga turtki bo‘lib, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ilmiy va amaliy sohalarda ilg‘or natijalarga erishish imkonini yaratadi. Buning natijasida nafaqat ta'lim sohasidagi o‘zgarishlar, balki butun jamiyatning rivojlanishi uchun muhim omillar shakllanadi. Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularga mos pedagogik yordam ko‘rsatish, ularning intellektual salohiyatini to‘g‘ri rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar va pedagoglar talabalarni faqat bilim darajasi bilan emas, balki ijodiy yondoshuv, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati kabi mezonlar bo‘yicha ham baholashlari kerak.

Iqtidorli talabalar jamiyatning kelajakdagi etakchilari bo‘lib, ularning ta'limdagi muvaffaqiyati jamiyatdagi ilmiy, texnologik va ijtimoiy sohalarda

yuksalishga olib keladi. Shuning uchun, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, shuningdek, ilg‘or ta'lim metodlarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Bugungi kunda o‘qituvchilarga talabalar salohiyatini aniq baholash va ular bilan individual ravishda ishlashni talab qiladigan pedagogik vazifalar qo‘yilmoqda. Iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning salohiyatlarini rivojlantirish va ularni samarali yo‘naltirish, ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun bu mavzu nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Iqtidorli Talabalar O‘ziga Xos Xususiyatlari:

Iqtidorli talabalar o‘zlarining yuqori intellektual va ijodiy salohiyatlari bilan ajralib turadilar. Ularning ba'zi o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- **Tez o‘zlashtirish va yuqori eslab qolish qobiliyati:** Iqtidorli talabalar yangi materiallarni tezda o‘zlashtiradilar. Ular o‘qilgan ma'lumotlarni uzun vaqt davomida eslab qolish va amaliyotda qo‘llashda ham muvaffaqiyatli bo‘ladilar. Shuningdek, ular yangi g‘oyalarni tushunishda yuqori tezlikka ega.
- **Ijodiy yondoshuv va o‘ziga xos fikrlash usullari:** Iqtidorli talabalar oddiy tushunchalarni chuqurroq tahlil qilish va boshqa sohalar bilan bog‘lash orqali ijodiy yondoshuvni ishlab chiqadilar. Ularning fikrlash jarayoni ko‘pincha an'anaviy shablonlardan tashqariga chiqadi.
- **Xavfni boshqarish va stressga chidamlilik:** Iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar va muammolarni hal qilishda ko‘pincha stressli vaziyatlarga duch kelishadi. Biroq, ular bu vaziyatlarni boshqarishda va bunday sharoitda muvaffaqiyatga erishishda chidamliligi bilan ajralib turadilar.
- **Keng qiziqish doirasi:** Iqtidorli talabalar ko‘pincha bir nechta fan sohalariga qiziqadilar. Ular o‘zlariga qiziqarli bo‘lgan sohalarda bilimlarni kengaytirishga intilishadi va turli fanlarni o‘rganishdan mamnun bo‘ladilar. Bunda ular yangi g‘oyalar va bilimlarni o‘zaro bog‘lash orqali rivojlanadilar.
- **Mustaqil fikrlash va o‘zini baholash:** Iqtidorli talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga va o‘z bilimlarini sinab ko‘rishga tayyor bo‘ladilar. Ular o‘zlarini baholash va o‘z salohiyatlarini rivojlantirishga intilishadi. Shuningdek, ular o‘zlarining muvaffaqiyatsizliklaridan saboq olishga tayyor bo‘ladilar.

Iqtidorli Talabalarni Aniqlashda Pedagogik Psixologik Asoslar:

Iqtidorli talabalarni aniqlashda pedagogik psixologik yondoshuvlar ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar va pedagoglar talabalar bilan shaxsiy aloqada bo‘lib, ularning psixologik holatini va bilim olishdagi motivatsiyasini tushunishlari

zarur. Talabalar psixologiyasini tushunish ularning qobiliyatlarini aniqlashda va ularni ilmiy faoliyatga jalb qilishda yordam beradi.

- **Psixologik testlar va metodikalar:** Iqtidorli talabalarni aniqlashda psixologik testlar va metodikalar yordamida talabalar qobiliyatlarini baholash mumkin. Bunda talabalar qobiliyatlari, ijodiy yondoshuvlari, mantiqiy fikrlash va ilmiy faoliyatga qiziqishlari o‘lchanadi.
- **Boshqaruv va rag‘batlantirish metodlari:** Talabalarni rag‘batlantirish va boshqarish orqali ularning ilmiy salohiyatlarini rivojlantirish mumkin. O‘qituvchilar iqtidorli talabalarni ijtimoiy va akademik faoliyatlarga jalb qilib, ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari kerak.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Iqtidorli talabalar jamiyatning intellektual resurslari bo‘lib, ularning salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish va rivojlantirish jamiyatning ilmiy va texnologik rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Iqtidorli talabalar o‘zlarining yuqori intellektual salohiyati, ijodiy fikrlash qobiliyatlari, yangi g‘oyalarni yaratish va murakkab masalalarni hal qilishdagi mahorati bilan ajralib turadilar. Ularni aniq va samarali aniqlash o‘qituvchilarga ularning salohiyatlarini to‘g‘ri rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Bunda individual pedagogik yondoshuvlar, zamonaviy o‘qitish metodlari va psixologik yondoshuvlar muhim rol o‘ynaydi.

Iqtidorli talabalarni aniqlashda faqat bilim darajasi emas, balki ularning ijodiy yondoshuv, mustaqil ishlash va innovatsion fikrlash kabi psixologik xususiyatlari ham inobatga olinishi zarur. Bunday talabalar o‘zlariga qiziqarli bo‘lgan fanlarga yuqori motivatsiya bilan yondashadilar va ilmiy faoliyatda yuqori natijalarga erishadilar. Shuning uchun ta'lim jarayonida iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning ehtiyojlariga mos ta'lim metodlarini ishlab chiqish jamiyatning ilmiy va texnologik rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Takliflar:

1. **Differensial pedagogik yondoshuvni joriy etish**: Iqtidorli talabalarni aniqlashda individual pedagogik yondoshuvlarni tatbiq etish zarur. Har bir talabaga uning salohiyatiga mos ravishda ta'lim berish, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan doimiy muloqotda bo‘lish ta'lim samaradorligini oshiradi.
2. **Psixologik va diagnostik metodlardan foydalanish**: Iqtidorli talabalarni aniqlashda psixologik testlar, intellektual va ijodiy salohiyatni baholash

metodikalarini kengroq qo‘llash kerak. Bu metodlar talabalarni aniqroq tahlil qilish va ularning salohiyatlarini to‘g‘ri baholashga yordam beradi.

3. **Ilmiy va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish:** Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, ular uchun ilmiy konferensiyalar, tadqiqotlar va amaliyotlar tashkil etish zarur. Shuningdek, rag‘batlantiruvchi tizimlar (mukofotlar, stipendiyalar, ilmiy natijalar uchun taqdirlash) orqali ularning motivatsiyasini oshirish kerak.

4. **Ilmiy-tadqiqot faoliyatini integratsiya qilish**: Iqtidorli talabalarni ilmiy izlanishlarga yo‘naltirish va ularga innovatsion g‘oyalarni yaratishda amaliy yordam ko‘rsatish kerak. Shuningdek, talabalar o‘z salohiyatlarini ilmiy tadqiqotlar orqali kengaytirishlari va jamiyat uchun foydali yangi yechimlar taklif qilishlari mumkin.

5. **O‘qituvchilarni tayyorlash:** Iqtidorli talabalar bilan ishlashda o‘qituvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash, zamonaviy pedagogik metodlarni o‘rganishlarini ta'minlash zarur. O‘qituvchilarga individual yondoshuv va psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratish, ularning samarali ishlashiga yordam beradi.

6. **Talabalarning psixologik va shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish**: Iqtidorli talabalar faqat ilmiy faoliyatda emas, balki shaxsiy rivojlanishda ham qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Ularning o‘z-o‘zini anglash, psixologik chidamlilik va stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. **Abdullaeva, D. (2018).** Pedagogik psixologiya: O‘qitish va o‘rganish jarayonlarining psixologik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

2. **Ismailova, N. (2020).** Ta'lim tizimidagi iqtidorli talabalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari. Tashkent: Science and Education.

3. **Kholmirzaeva, M. (2019).** Talabalarda ilmiy faoliyatni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

4. **Shukurov, F. (2021).** Pedagogika: Ilmiy yondoshuvlar va metodlar. Toshkent: Akademiya.

5. **O‘rtaeva, Z. (2022).** Iqtidorli talabalarni o‘qitish va rivojlantirishda pedagogik psixologiyaning o‘rni. Tashkent: Fan va Ta'lim.

6. **Davlatov, A. (2017).** Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi O‘qituvchilar va pedagoglarning malakasini oshirish instituti.

7. **Vygotsky, L. S. (1978).** Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

8. **Gardner, H. (2006).** Multiple Intelligences: New Horizons. Basic Books.
9. **Sternberg, R. J. (2003).** Wisdom, Intelligence, and Creativity Synthesized. Cambridge University Press.
10. **Shirinov, T. (2020).** Innovatsion pedagogik metodlar va iqtidorli talabalar. Toshkent: Universitet nashriyoti.

Features of Measles Progression in Adults at the Modern Stage

Rakhmatullaeva Sh.B., Okhunjonova K.X.
Tashkent Medical Academy
Uzbekistan, Tashkent

Relevance: Measles remains a significant public health issue, particularly in countries with low vaccination coverage. In recent years, an increase in measles cases has been observed, including among adults, due to vaccine hesitancy and lack of immunity.

The aim of the study: To investigate the clinical and laboratory characteristics of measles in adults and identify differences compared to children.

Materials and methods: Observations were conducted on 208 patients (152 adults and 56 children) diagnosed with measles. Clinical, serological, and statistical analysis methods were utilized. Measles-specific antibody levels were determined using enzyme-linked immunosorbent assay (ELISA).

Results: Measles in adults is more severe compared to children: The proportion of severe cases among adults was 13.1% (compared to 8.9% in children). Mild forms were less frequent in adults, at 5.9% (compared to 35.7% in children). Adults showed more pronounced intoxication and febrile responses. Complications, such as bronchitis, were more common (69.7% of cases). Adults exhibited less severe catarrhal symptoms during the catarrhal stage, but these differences disappeared during the rash stage. A significant proportion of adults (60%) lacked confirmed information about their vaccination status, complicating the assessment of vaccine influence.

Conclusions: Measles in adults retains its typical symptoms but is characterized by more severe progression and a higher rate of complications compared to children. Diagnosis relies on clinical manifestations, epidemiological history, and laboratory testing. Vaccination remains a critical preventive measure; however, low vaccination coverage increases the risk of infection spread.

Practical Implications: The study emphasizes the importance of increasing vaccination coverage, particularly among adults, and the need for timely diagnosis and hospitalization to prevent severe cases and complications.

CONTENT AND METHODOLOGICAL MODEL OF IMPLEMENTING AN INTEGRATED CREATIVE APPROACH

Mamajonov Khoshimjon Abdumalikovich
Independent researcher at Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the content and methodological model of an integrated creative approach. The importance of a creative approach in improving the effectiveness of education through interdisciplinary connections, the development of creative thinking, and the use of modern technologies is shown. The issues of improving the skills of teachers and modernizing the educational process are also discussed.

Keywords: integrated creative approach, methodological model, educational effectiveness, interdisciplinary connections, modern technologies.

The introduction of an integrated creative approach in the modern educational process is of great importance not only for enriching the content of education, but also for developing students' independent thinking and problem-solving skills through innovative approaches. Unlike traditional educational methods, this approach is aimed at ensuring the active participation of students and forming knowledge and skills aimed at in-depth study and practical application. The essence of the integrated creative approach is manifested in the systematic assimilation of knowledge and its direction in creative activity through a deeper understanding of the relationship between different disciplines and areas. One of the main principles of the integrated creative approach is the organization of the educational process based on interdisciplinary connections. This principle allows students to form a more comprehensive and rich knowledge base by combining different disciplines or topics. For example, by teaching mathematics and physics together, students have the opportunity to gain a deeper understanding of the mathematical foundations of certain physical phenomena. Also, by combining art and history, the skills of imagining the cultural environment of the era are developed. The importance of the creative approach is increasing in the modern education system. In addition to traditional methods of imparting knowledge, the use of innovative and creative methods is required in the educational process. Through a creative approach, students are instilled with the ability to think independently, the skills of finding unconventional solutions to problems, and scientific and creative interest. An integrated creative approach involves strengthening interdisciplinary connections,

combining knowledge from different fields and increasing the effectiveness of the educational process by applying them creatively.

The development of creative thinking is an integral part of an integrated approach. Students are formed with the skills of adapting existing knowledge to new situations, finding unconventional solutions, and implementing their own ideas. Through this approach, students not only acquire theoretical knowledge, but also acquire the ability to apply the acquired knowledge to solve practical problems. In this case, it is important for the teacher to create opportunities for students to approach different situations differently. The widespread use of modern technologies in the implementation of an integrated creative approach is an important condition for increasing the effectiveness of education. Virtual laboratories, multimedia tools, online platforms and distance learning systems help students work on themselves and develop individually. For example, with the help of virtual laboratories, students have the opportunity to carry out complex experiments in a safe environment. Multimedia tools, on the other hand, make the process of learning interesting and effective for students by explaining the topic in a visual way. The integrated creative approach aims to enrich the process of learning for students by combining multidisciplinary knowledge and practice. The following principles are at the heart of this approach:

1. Interdisciplinary: Understanding the connections between different disciplines and using them to consider issues in a broader context. For example, solving practical problems by combining physics and mathematics increases students' analytical and creative thinking skills.

2. Creative thinking: Developing students' desire to think differently and find innovative solutions. This process gives students the opportunity to try different approaches to the same question.

3. Application-oriented: Focusing on applying the knowledge learned to solve real-life problems. Through this, students gain a deeper understanding of how theoretical knowledge can be applied in practice.

The use of interactive methods in teaching methods increases the effectiveness of an integrated approach. Through problem-based learning, project work, team discussions, and game technologies, students become more active in the process of learning. These methods increase the activity and creative potential of students and strengthen their thinking skills. Project-based learning also provides students with the opportunity to develop real-life problem-solving skills. In assessing an integrated creative approach, it is important to use modern methods along with traditional assessment systems. Portfolio assessment, analysis of project

work, self-assessment, and assessment through students' creative work allow for a more accurate assessment of student development. These methods increase students' responsibility for independent work and encourage their active participation in the educational process. For the successful implementation of an integrated creative approach, it is important to improve the skills of teachers, prepare them to work with modern technologies, and direct them to master new methods. Teachers can become leaders in introducing innovative approaches to the educational process by participating in special training and advanced training courses. They also have the opportunity to further enrich their skills by participating in research and studying international experience.

In conclusion, an integrated creative approach is an important factor in increasing the effectiveness of the educational process, helping to develop students' creative potential, increase interest in the learning process, and shape them as successful individuals in the future. The full implementation of this approach in the education system will help increase the country's competitiveness in the field of education and will be an important step in raising a generation with modern knowledge.

References:

1. Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for quality learning at university: What the student does (4th ed.). Open University Press.
2. Dabbagh, N., & Kitsantas, A. (2012). Personal learning environments, social media, and self-regulated learning: A natural formula for connecting formal and informal learning. Internet and Higher Education, 15(1), 3-8. https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2011.06.002
3. Graham, C. R. (2006). Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs (pp. 3-21). Pfeiffer Publishing.
4. Kember, D. (2009). Understanding the nature of motivation and motivating students through teaching and learning in higher education. Routledge.

UDK: 634.64.1

IN VITRODA DONAKSIZ ANORNI KO‘PAYTIRISH TEXNALOGIYASI

Qarshi Davlat Universiteti Magistranti
Yusupova Vasila To`xtaniyozovna

Annotatsiya. Maqolada danaksiz anorning yuqori va sifatli ko’chatlarini in vitro sharoitida stimulyatorlar bilan to’yintirilgan MS muhitida o’stirib, o’simliklarni o’sishi, rivojlanishi ustida amalga oshiriladigan tatqiqot natijalari

Kalit so’zlar: Danaksiz anor, klon, in Vitro, ozuqa muhit, o’sish, rivojlanish, moslanuvchanlik

Аннотация . В статье представлены результаты исследований по росту и развитию высококачественных бессемянных сеянцев граната, выращенных на среде МС, насыщенной стимуляторами in vitro.

Ключевые слова: гранат без косточек, клон, in vitro, питательная среда, рост, развитие, адаптивность.

Abstract. The article presents the results of studies on the growth and development of high-quality seedless pomegranate seedlings grown on MS medium saturated with stimulants in vitro.

Key words: seedless pomegranate, clone, in vitro, nutrient medium, growth, development, adaptability.

Kirish Anor (*Punica granatum L.)* dunyo miqyosida qadimdan qimmatli mevali daraxt sifatida tanilgan bo‘lib, uning to‘yimli, shifobaxsh va tijorat ahamiyati yuqori. Anorning mevalari antioksidant, vitaminlar va minerallarga boy bo‘lib, inson salomatligini saqlashda katta ahamiyatga ega. Anor mevali daraxt bo’lib barglari mayda daraxt punicaceae oilasiga kiradi (Popenoe 1974). Bu farmatsevtika va oziq ovqat maqsadlarida foydalanish uchun mazali mevali bu daraxt dunyoning tropik va subtropik mintaqalarida o'sadigan iqtisodiy jihatdan muhim o'simlikdir (Jayesh va Kumar 2004). Uning vatani Eron, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan anor tarqalgan va Xitoy, Shimoliy Afrika va O'rta er dengizi Evropaga keng tarqalgan (Dekandolle 1967, Zukovskij 1950, Raj va Kamlesh 2010). Bangladeshda u anor nomi bilan tanilgan va faqat uy sharoitida yetishtiriladi. Ammo uning mazali xususiyatlari va gemoglobinni yaxshilash elementlari tufayli talab ortib bormoqda va bemorlar uchun yoqimli va ishtaha ochuvchi meva sifatida afzal ko'riladi.

Tadqiqot uslublari: In vitro laboratoryasida o‘simliklsrni kulturaga kiritish, kulturalarni ko‘paytirish, onalik materiallarni saqlash, inkubatsiyada o‘simliklarni o‘stirish, aklimda o‘simlikllarni aklimitizatsiyadan o‘tqazib tashqi muhit omillariga moslashtirish.

Sifatli ko‘chat yetishtirish: In-vitro texnologiyasi o‘simliklarning steril sharoitda, o‘zgarmas harorat va yorug‘lik ostida ko‘paytirilishini ta’minlaydi. Bu usul orqali sog‘lom va viruslardan xoli ko‘chatlar olinadi. Anor ko‘chatlari an'anaviy usullarda sekin o‘sadigan bo‘lsa, in-vitro usulida o‘sishni tezlashtirishga erishiladi.

Genetik xilma-xillikni saqlash: Anor navlarini in-vitro sharoitida ko‘paytirish usuli ularning genetik barqarorligini saqlashga yordam beradi. Bu ayniqsa noyob va yo‘qolib borayotgan navlarni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega.

Danaksiz navlarni ko‘paytirish: Danaksiz anor navlari iste'molchilar orasida katta talabga ega. In-vitro texnologiyasi bunday navlarni tez va samarali ravishda ko‘paytirish imkonini beradi. Bu usul yordamida yangi danaksiz navlarning genetik modifikatsiyasiz shakllarini ko‘paytirish va ular sifatini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Ozuqa muhitining tarkibi ozuqa va organizmlarning o'sish sharoitlarini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Oziqlanish manbalari, shu jumladan mineral tuzlar (makro- va mikroelementlar), uglevodlar (masalan, saxaroza), vitaminlar va o'sish regulyatorlari (fitohormonlar) ozuqa muhitining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ba'zan qo'shimcha organik moddalardan (kazein gidrolizati, Hindiston yong'og'i suti, xamirturush ekstrakti, makkajo‘xori endospermi) foydalaniladi. Konsistensiya jihatidan, muhit qattiq yoki agar-formadagi va maqsadga qarab suyuq bo'lishi mumkin. Agar-agar qattiq muhit tayyorlash uchun qo'llaniladi. Ozuqa muhitida temir xelatlangan shaklda bo'lib, uning o'simliklar tomonidan samarali singishi ta'minlanadi. In vitro sharoitida yetishtirilgan o'simliklar o'zining hayotiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vitaminlarni sintez qilish qobiliyatiga ega, lekin dastlabki bosqichda madaniyatga kiritilishidan oldin vitaminlar qo'shilishi zarur. O'sish regulyatorlari esa differentsiatsiya va morfogenezni boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular maqsadga muvofiq ravishda o'zgartiriladi.

Oziqlanishning asosiy manbai – uglevodlar, ular odatda 2-5% konsentratsiyadagi sukrozdan iborat bo'ladi. Muayyan o'simlik to'qimalarining pH darajasi muhit tarkibining barqarorligi va hazm bo'lishiga ta'sir qiladi, va ko'plab o'simlik to'qimalari uchun pH darajasi 5.0 dan 7.0 gacha bo'ladi. Ozuqa muhitini tayyorlashda pH 6.5-7.0 darajalarida bo'lishi zarur, chunki avtoklavlash jarayonida pH kamayishi mumkin. Oziq muhitini tez va qulay tayyorlash uchun makro- va

mikroelementlarning konsentrlangan eritmalarini oldindan tayyorlash tavsiya etiladi. Ushbu eritmalar saqlash uchun muzlatgichda 2-4°C haroratda, qorong'u idishlarda 4-6 hafta davomida saqlanadi. Vitaminlar va fitohormonlar eritmalari 1 mg/ml konsentratsiyada tayyorlanadi va muzlatiladi. Uglevodlar va organik qo'shimchalar to'g'ridan-to'g'ri ozuqa muhitiga qo'shiladi.

Ozuqa muhitining tayyorlanishi uchun zarur bo'lgan barcha komponentlar, shu jumladan makro tuzlar, mikroelementlar, vitaminlar va fitogormonlar, eritmalarining tarkibini empririk tarzda tanlash zarur. Bunday muhitlar o'simliklarning in vitro ko'paytirish va morfogenez jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

In vivo o‘simlik uchun kallus - bu sodir bo‘ladigan hujayralar guruh jarohatlar va shikastlanish joyini himoya qilish (yara parenximasi). Undaanatomik regeneratsiya uchun ozuqa moddalarini to‘plashtuzilmalar yoki yo‘qolgan organ.Kallus in vitro dan iborat to‘qimadir doimiy bilan tavsiflangan dedifferensial hujayralaruyushmagan o‘sish va ko‘payish.Tarkibida auksinlar yoki ularning ko‘p bo‘lgan ozuqaviy muhitdaeksplant hujayralarning sintetik analoglari ajratiladiva tarqalishiga o‘ting. Hujayralar avvalgi funksiyalarini yo‘qotadi va morfologiya. Bundan tashqari, hujayra tuzilmaviy va kimyoviy jihatdan qanchalik kam farqlansa, kallusni olish osonroq bo‘ladi.

Anorning yangi danaksiz shakllarini yaratish va ko‘paytirishda genetik mutatsiyalarni nazorat qilish, noxush o‘zgarishlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega. In vitro ko‘paytirish jarayonining samaradorligini oshirish uchun o‘simliklar va ularning hujayralari uchun zarur bo‘lgan barcha kerakli ozuqaviy komponentlar to‘g‘ri tanlanishi zarur. O‘simliklarning in vitro ko‘paytirish jarayonida yangi danaksiz shakllarning yaratilishi, genetik xilma-xillikni oshiradi va yangi avlodlarni yaratishga imkon beradi. O‘simliklar va ularning hujayralarini yuqori darajada ko‘paytirish uchun muhitdagi fitohormonlar va ozuqa moddalarining konsentratsiyasini optimallashtirish talab qilinadi

ADABIYOTLAR

1. Amin MN and Akhter S (1993) Regeneration of plants in vitro from seedling explants of pummelo (Citrus grandis). Plant Tissue Cult. 3: 71-79.

2. Amin MN, Razzaque MA and Akhter S (1992) Axillary shoot proliferation and adventitious rooting in vitro of carambola (Averrhoa carambola L.). Plant Tissue Cult. 2: 7-13.

3. Amin MN, Islam MN and Azad MAK (1999) Regeneration of plantlets in vitro from the seedling explants of pomegranate (Punica granatum). Plant Tiss. Cult. 9(1): 53-61.

4. Bachake SS, Jadhav VB, Deshpande PP, Tele AA, Banda MA, Adki VS, Gopika MK, Karanjule PG, Birajdar SB, Karwa NN, Mundhewadikar DM and Singh NV (2019) Standardization of in vitro propagation protocol for pomegranate cv. Super Bhagwa. Journal of Pharmacognosy and Phytochemistry. 8(3): 2548-2553

TIBBIY YORDAM KO‘RSATISHNING O‘ZIGA XOS YANGI TIZIMI

Abduraxmanova Zamira Amirillayeva
Guliston Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o’quv ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida tibbiy yordam ko‘rsatishga oid islohotlar va aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning yangi tizimi yaratilayotganligi haqida ma’lumot berildi.

Kalit so‘zlar: xirurgiya, kardiologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi, urologiya, akusherlik, ginekologiya, pediatriya, endokrinologiya, terapiya, pulmonologiya.

Аннотация. В статье раскрыто о реформах, проведенных в сфере оказания и создании медицинской помощи в Республики Узбекистане.

Ключевые слова: хирургия, кардиология, глазной микрохирургия, урология, акушерство, гинекология, педиатрия, эндокринология, терапия, пульмонология.

Annotation. The article reveals about the reforms carried out in the field of providing and creating medical care in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: surgery, cardiology, eye microsurgery, urology, obstetrics, gynecology, pediatrics, endocrinology, therapy, pulmonology.

O‘zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahnomaligidaRespublikada sog‘liqni saqlashni isloh qilish davlat dasturlari asosida yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishning prinsipial jihatdan yangi tizimi tashkil etildi. Respublikada ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, shu jumladan, xirurgiya, kardiologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi, urologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya, endokrinologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, dermatologiya va venerologiya, ftiziatriya va pulmonologiya sohasida zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan va yuqori malakali vrachlar bilan to‘ldirilgan ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 - 2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublakasi Prezidentining 2017 yil 17 iyundagi PQ-3071-sonli qaroriga asosan [1] quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda: Respublikada va har bir mintaqada kasalliklar tendensiyasini o‘z vaqtida aniqlashni ta’minlaydigan tahliliy

va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilmoqda. Shuningdek, sog‘liqni saqlashning viloyat va tuman (shahar) tashkilotlari uchun profilaktik va davolash faoliyatining sxemalari ishlab chiqilgan;

- o‘z ixtisosligi bo‘yicha yagona metodik, texnologik, davolash va profilaktika siyosati amalga oshirilgan, zamonaviy tibbiyot uskunalari va texnologiyalarga, dori vositalari va tibbiy buyumlarga bo‘lgan ehtiyoji aniqlanib, klinik protokollar ishlab chiqilmoqda; shu jumladan, axborot va tushuntirish materiallarini nashr etish orqali mintaqalarda zarur profilaktika ishlari olib borildi;
- hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-metodik rahbarlik, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalari joriy etildi;
- sayyor konsultatsiyalar, mahorat darslari, shuningdek, birinchi navbatda eng murakkab holatlarda hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot tashkilotlarida operatsiyalar muntazam ravishda o‘tkazib borilmoqda.

Shuningdek, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti bilan birgalikda muassasalarning o‘z tibbiyot xodimlari, ixtisoslashtirilgan hududiy tibbiyot tashkilotlar tibbiyot xodimlari malakasini tizimli oshirish, shuningdek, klinik ordinatura, bazaviy doktorantura va doktoranturada tor mutaxassis kadrlar tayyorlash masalalari; etakchi xalqaro tibbiyot markazlari, klinikalar va yuqori malakali xorijiy

mutaxassislar bilan, shu jumladan, konsultatsiyalar va mahorat darslari o‘tkazish uchun ularni respublikaga taklif etib, keng hamkorlik tashkil qilingan, sog‘liqni saqlashning mahalliy mutaxassislari chet eldagi ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari va klinikalarida tajriba orttirishiga ko‘maklashilmoqda.

Xirurgiya sohasini rivojlantirish bo‘yicha muhim qaror qabul qilindi. Jumladan, 2021 yil 4 oktyabrdagi “Xirurgiya xizmatini transformatsiya qilish, hududlarda jarrohlik amaliyotlari sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiton Respublikasi Prezidentining PQ-5254-sonli qarori qabul qilindi [2]. Unga asosan,

- akademik V.Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi - viloyat - tuman (shahar) tibbiyot muassasalari o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash;
- hududlar va tuman (shahar) darajasida kam invaziv va yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini keng joriy etish;
- Xirurgiya markazida transplantatsiya amaliyotlarini xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda keng joriy etish;

- xirurg, anesteziolog, reanimatolog, nefrolog va boshqa mutaxassislarning salohiyatini oshirish, ularni nufuzli xorijiy tibbiyot muassasalari va markazlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini tashkil etish, zamonaviy simulyasion markazda mutaxassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- xirurgiya yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, xodimlarning ilmiy salohiyatini oshirish; aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida Xirurgiya markazi, uning filiallari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari xirurgiya, anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash belgilab berilgan.

Shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Moliya vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berildi:

a) bolalarda tug‘ma yurak nuqsonlarini endovaskulyar yo‘l bilan davolashni keng joriy etish, ularni qisqa vaqt ichida to‘liq sog‘lomlashtirib, nogironlikdan chiqarish maqsadida: 2021 yilda yurak nuqsonlarini davolash uchun mo‘ljallangan 500 ta tibbiy buyum (okklyuder) xarid qilishga Sog‘liqni saqlash vazirligiga rivojlantirish dasturlari uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida vazirlikka 10 milliard so‘m mablag‘ ajratish;

b) 2022 yildan boshlab esa ehtiyojdan kelib chiqib har yili o‘rtacha 2500 ta okklyuder xarid qilish uchun Davlat byudjeti parametrlarida

zarur mablag‘larni nazarda tutish;

c) O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan, shuningdek

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalaridan teng ulushda 2021 yilda Xirurgiya markazi filiallarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun 42,5 milliard so‘m mablag‘ ajratish;

d)2022-2023 yillarda tumanlararo qo‘shma shikastlanish va o‘tkir

qon-tomir kasalliklari markazlariga biriktirilmagan 26 ta tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining xirurgiya, anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limlarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun 71,4 milliard so‘m yo‘naltirish masalalari muhim qilib belgilab berildi. Albatta, muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyov tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ilohotlarimizda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili, aholi salomatligi hamma narsadan ustun ekanigi

yangilanayotgan O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish joizi, bugungi kunda Xiva tibbiyot kollejida yoshlarni muhim kasb hunarga o‘rgatish, jumladan, xirurgiya sohasidagi islohotlar bilan

tanishtirish bilan bir qatorda kasalxonalarda xirurgiya sohasidagi tibbiyot amaliyotida talabalarini ishtirok etish masalalariga katta ahamiyat berilgan. Zeroki, tibbiyot sohasidagi amaliyot talaba-yoshlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizni dardi darmon bo‘lish, sog‘ligini tiklash har bir tibbiyot xodimining muqaddas

burchidir.

Adabiyotlar:

1. https://lex.uz/docs/3238680. 2017 yil 20 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 - 2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublika Prezidentining PQ-3071-sonli qarori.

2. https://lex.uz/docs/5668623. 2021 yil 4 oktyabrdagi “Xirurgiya xizmatini transformatsiya qilish, hududlarda jarrohlik amaliyotlari sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiton Respublikasi Prezidentining PQ-5254-sonli qarori.

O‘ZBEKISTON VA BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI HAMKORLIGI TARIXIGA BIR NAZAR

Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich
Ma’mun universiteti o‘qituvchisi
E-mail: allaberganov_ollabergan@mail.ru
https://orcid.org/0009-0002-8596-0926

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari boshlanishi, rivojlanishi va sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilish masalalari tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, BMT, strategiya, xalqaro shartnoma, assambleya, mintaqaviy xavfsizlik, sammit, sessiya, rezolyutsiya, tashabbus.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblangan tinchlikni ta’minlash va xalqaro munosabatlarda teng huquqli davlat sifatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka katta ahamiyat qaratadi.

Ma’lumki, o‘tgan davr ichida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini belgilovchi asosiy yo‘nalishlaridan biri - xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash hisoblanib jumladan, BMT bilan aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Darhaqiqat, 1992-yil 2-mart kuni mustaqil O‘zbekiston davlati dunyodagi eng nufuzli tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a’zosi bo‘ldi, uning Nyu-York shahridagi qarorgohida mamlakatimizning davlat bayrog‘i hilpiray boshladi. 1992-yil 2-martda O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lib dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqea Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egallashida ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O‘zbekistondagi vakili etib tayinlandi [1].

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig‘ilishida so‘zlagan nutqida ham asosiy e’tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratilgan edi.

2000-yil 8-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti”da va 2010-yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik rivojlanish”ga bag‘ishlangan majlisida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan tashabbuslari O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi[2].

2002-yil 18-20- oktyabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofi Annan, 2010-yilning aprel oyida Pan Gi Mun, 2017-yilning iyun oyida Antoniu Guttereshlar respublikamizga tashrif buyurishlari ham O‘zbekiston va BMT aloqalarining yangi bosqichga ko‘tarilishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2017-yil 19-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. Mazkur nutq O‘zbekistondagi islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya va umuman, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish masalalarini qamrab oldi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang ekanligi namoyon bo‘ldi. Prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilish taklifi kiritildi. O‘zbekistonning bu taklifi BMT tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi. Bu esa xalqaro maydonda O‘zbekistonning sa’y-harakatlariga berilgan yuksak e’tirofdir[3].

Prezident Sh.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi”… Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida “Inson huquqlari bo‘yicha ta’lim” global forumi, yoshlar huquqlariga bag‘ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo‘yicha mintaqaviy konferensiyalarni o‘tkazamiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30-iyul – Xalqaro do‘stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O‘zbekistonda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilashni taklif etaman...[4], deb alohida ko‘rsatib o‘tganligi O‘zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi.

O‘zbekiston BMTni zamonaviy talablar asosida isloh qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Yangi tashabbuslar va qo‘shma loyihalarni ilgari surish maqsadida O‘zbekiston tomonidan BMT bilan o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi” izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatdagi vazifalar to‘liq ro‘yobga chiqarilishi

mamlakatimizning BMT bilan munosabatlarini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Dunyoda kechayotgan hozirgi globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan birga, o‘zida turli tahdid va xavf-xatarlarni ham namoyon etmoqda. Ana shunday sharoitda davrimizning eng obro‘li xalqaro tuzilmasi - BMT bilan tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash yo‘lida samarali hamkorlik qilish xalqimizning tub milliy manfaatlariga to‘liq mos keladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda BMTning o‘ndan ortiq dasturlari, jamg‘armalari va agentliklari, bir qator ixtisoslashgan muassasalari faoliyat olib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, 2020-yil 13-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo‘lib o‘tgan saylovda O‘zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor mazkur xalqaro tuzilmaning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga uch yil muddatga - 2021-2023 yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun BMTga a’zo 191 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. O‘zbekistonning teng huquqli a’zo sifatida Kengashning dastlabki uchrashuvida birinchi marta ishtirok etishi olamshumul va tarixiy voqelik bo‘ldi[5]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Inson huquqlari bo‘yicha kengashning 46-sessiyasida so‘zlagan nutqida ilgari surilgan tashabbuslar bevosita O‘zbekiston va BMT doirasidagi ikki tomonlama hal etiladigan masalalarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, shu tariqa O‘zbekiston hamda BMT o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topmoqda[6].

2022-yil yanvar oyida qabul qilingan Yangi O‘zbekistonni 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni bajarish, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni chuqurlashtirish jarayoni va barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish hamda ekologik muammolarni bartaraf etishga BMT va uning ixtisoslashgan muassasalarini faol jalb qilish hozirgi paytda mamlakatimizning BMTdagi doimiy vakolatxonasi oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bu vazifalarning to‘la amalga oshirilishi, shubhasiz, mamlakatimizning BMT bilan o‘zaro manfaatli hamkorligi ko‘lamlarini kengaytirishi barobarida O‘zbekistonning xalqaro maydondagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi[7].

O‘zbekiston BMTning teng huquqli a’zosi sifatida jahon miqyosidagi va mintaqaviy masalalarni hal etishda ushbu nufuzli xalqaro tashkilot bilan faol hamkorlik qilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni to‘la qaror toptirish uchun xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun barcha davlatlar bilan

teng huquqli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi maqsadlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, mustaqillikning dastlabki kunlaridan O‘zbekiston va BMT hamkorlik aloqalari ikki tamonlama manfaatlarning uyg‘unligiga asoslangan holda yo‘lga qo‘yilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston -2030” strategiyasida mamlakatimiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan manfaatli hamkorlik qilishga va BMT hamda uning institutlari bilan amaliy muloqotga hamisha tayyorligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topgan. O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamkorligi izchil davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xoliqova R.E. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: 2021. 170-bet
2. R.H.Murtazayeva, D.M.Inoyatova va boshqalar. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent, 2022. 249-bet
3.Rasulov M.F. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi – Farg‘ona: Classik, 2023.156-bet
4. https://president.uz/oz/lists/view/4057
5.https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-hamjamiyatning-ishonchi-ragbati-va-etirofi
6. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-bmt-hamkorlikning-ustuvor-yonalishlari
7. https://namangan.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=55709

Biologiya darslarini tahlil qilishning pedagogik va ilmiy asoslari.

E.K.Egamov-TTA.Urganch Filiali Akademik litseyi biologiya fani o`qituvchisi,
Z.A.Ibragimova-Urganch shahar 4-son maktab biologiya fani o`qituvchisi,
O.X.Madyorova-Hazarasp tuman 43-son maktab biologiya fani o`qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Biologiya darslarini tahlil qilishning pedagogik va ilmiy asoslarini tashkil etuvchi darsni kuzatishga tayyorgarlik, darsning borishini kuzatish, o'z-o'zini tahlil qilishni ta'minlash, dars tahlili va takliflar berishning me`yoriy tamoyillari sharhlangan.

**Kalit so`zlar:** Dars ,ilmiy tahlil. psixologik tahlil, metodik tahlil, didaktik tahlil. umumpedagogik tahlil, hikoya usuli, og`zaki bayon usuli, suhbat usuli.

Абстрактный. В данной статье излагаются нормативные принципы подготовки к наблюдению за уроком, наблюдения за ходом урока, обеспечения самоанализа, анализа урока и подачи предложений, которые составляют педагогическую и научную основу анализа уроков биологии. .

Ключевые слова: Урок, научный анализ. психологический анализ, методологический анализ, дидактический анализ. общепедагогический анализ, метод рассказа, метод устного изложения, метод беседы.

Abstract. In this article, the normative principles of preparing for observing the lesson, observing the progress of the lesson, ensuring self-analysis, analyzing the lesson and giving suggestions, which make up the pedagogical and scientific basis of the analysis of biology lessons, are explained.

Key words: Lesson, scientific analysis. psychological analysis, methodological analysis, didactic analysis. general pedagogical analysis, story method, oral presentation method, conversation method.

Kirish. Tabiat to‘g‘risidagi yetakchi fanlarning biri sanalgan biologiya zimmasiga o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ancha mas’uliyatli vazifalar tushadi. Shu sababli, ham maktab biologiya o‘quv fanining mazmuni o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega.Biologiyani o‘qitishda avvalo, o‘quvchilarni biologiyaning asosiy g‘oya, nazariya, qonuniyatlari va tushunchalari, amaliyot, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida tutgan o‘rni, biologik bilimlarni o‘zlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish nazarda tutiladi va shu orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va insonning tabiat va jamiyatga ongli munosabatini tarkib toptirish

bilan uzviy bog‘langan holda ta’lim-tarbiyaviy tizim vujudga keltiriladi.Shu sababli har bir bo`lg`usi biologiya fanlari o`qituvchisi darsni kuzatish va tahlil qilishning me`yoriy asoslarini bilishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o’quvchilarning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faoliyati, o’quv faniga bo’lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, matn, xarita, jadval, asboblar bilan mustaqil ishlay bilishi, o’qituvchiga bo’lgan munosabati aniqlanadi. Shu bilan birga o’qituvchining faoliyati ham tahlil qilinadi. Chunonchi, o’qituvchining o’quv dasturi materiallarini bilish darajasi, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy fikrni ajratib olishi, ilmiylik va soddalik, ko’rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, dars maqsadini to’g`ri qo’yishi, dars jarayonini to’g`ri rejalashtirishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirishni nazorat etishi, o’quvchilar bilan yakka va jamoada ishlashni tashkil eta bilishi, dars mobaynida vaqtdan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi kabi jihatlar inobatga olinadi.

Ta’kidlash joizki, umumiy o’rta ta’lim maktab o’qituvchilarining darslarini tahlil qilishda ko’pincha kuzatuvchilar darsga yaxlit tizim sifatida qaramay ko’proq tashqi jihatlariga baho beradilar, darsning mazmun-mohiyati xususida yuzaki mulohaza yuritadilar. Shuningdek, dars tahlilida o’qituvchining ko’rsatmali qo’llanmadan foydalanishi, didaktik kartochkalar bilan ishlashi va hokazolar aytiladi-yu, ammo ulardan nima maqsadda, qaysi vaziyatda foydalanilgani, qanchalik samara berganligi, vaqt taqsimotiga to’g`ri amal qilinganligi, o’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan-olmaganligi kabi masalalar to’g`risida fikr yuritilmaydi. Bundan tashqari yana bir jiddiy kamchilik o’qituvchining o’zini o’zi tahlil qilishiga e’tibor qaratmaslikdir. Shundan kelib chiqib darsni tahlil qilishning pedagogik va ilmiy asoslarini o`rganish muhim axamiyat kasb etadi.

Natija va munozara. Darslarni tahlil qilish faqatgina metodik ahamiyatga ega bo’lmay, balki maktabda o’quv-tarbiya jarayoniga rahbarlik va nazoratning muhim shakllaridan biridir. O’qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish amaliyotining tizimli amalga oshirilishi darslarni qiyoslash va yo’l qo’yilgan xatolarning bartaraf etilganligini aniqlash imkoniyatini beradi. O’qituvchilarning o’zaro dars kuzatishi tajriba almashinuv jarayoni bo’lib, dars o’tayotgan o’qituvchi bor mahoratini ishga solib, yuqori ishchanlik bilan faoliyat ko’rsatsa, tahlil qiluvchi o’qituvchi esa taklif va mulohazalar berish orqali tajribasini boyitadi, metodik malakasini oshiradi.

Dars tahlili o’quv mashg`ulotini kuzatish, o’rganish shaklida olib boriladi. Shu o’rinda savol tug`iladi. O’qituvchining darsi kim tomonidan kuzatilishi lozim?

Qanday maqsad bilan kuzatiladi va tahlil qilinadi? O'qituvchining darsi viloyat XTB, tuman, xalq ta'limi bo'limi, ta'lim muassasalari rahbarlari, xodimlari, metodistlar va o'qituvchilar tomonida kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Buning uchun, eng avvalo, darsga kirishdan maqsad nimadan iborat ekanligini aniqlab olish zarur**.**

Dars quyidagi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini aniqlash;
- o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga yordam berish;
- ilg`or ish usullari va metodlarini o'rganish va ommalashtirish;
- o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishi;
- o'quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini o'rganish;
- dars jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarning oldini olish, o'qituvchiga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar psixologik xususiyatlarini o'ziga xosligini e'tiborga olish;
- darsda o'quvchilarni faollashtirish va mavzuni o'zlashtirishlarini e'tiborga olinganligi.

Dars - o'quv jarayonining juda ko'p ta'lim-tarbiya qirralarini hal qiluvchi asos hisoblanadi. Shunga ko'ra darsni kuzatuvchi va tahlil qiluvchilardan maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

Darsni tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1.Darsni kuzatishga tayyorgarlik.

2.Darsning borishini kuzatish.

3.O'z-o'zini tahlil qilishni ta'minlash.

4.Dars tahlili va takliflar berish.

Darsni tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

1. Darsni kuzatishdan oldingi tayyorgarlik:

- dars kuzatishdan ko'zlanayotgan maqsad va vazifalarni shakllantirish;
- kuzatiladigan darsni aniq belgilab olish;
- dars kuzatish tuzilmasini tayyorlash;
- kerakli materiallarni tayyorlash; o'qituvchi bilan suhbatlashish.

2. Darsning maqsadlarini tahlil qilishda:

- o’quv fani va mavzuning o’ziga xos tomonlari, o’quvchilar yoshi va bilim darajasi e’tiborga olingan holda ta’lim-tarbiya maqsadining to’g`ri va asosli qo’yilganligi;
- o’quvchilarning tayyorgarligi, o’rganilayotgan mavzu bo’yicha darslar tizimidagi aynan shu darsning o’rnini hisobga olgan holda maqsad qo’yilishining to’g`riligi va asoslanganligi;
- dars asosiy g`oyasining to’g`ri qo’yilishi va o’quvchilarga maqsadning yetkazilishi, maqsadga erishish darajasi.

3. Dars tuzilmasi va darsning tashkil qilinishini tahlil qilishda:

- dars tuzilmasining dars maqsadlariga mosligi;.
- darsning turi, strukturasining puxta o’ylanganligi;
- dars bosqichlarining mantiqiy ketma- ketliligi va bir- biri bilan bog`liqligi;
- dars bosqichlari uchun vaqtning to’g`ri taqsimlanganligi;
- o’qitish shakllarining to’g`ri tanlanganligi;
- dars rejasining mavjudligi va uning o’qituvchi tomonidan bajarilishini tashkil qilish;
- dars jihozlari. O’qituvchi va o’quvchilarning mehnatini unumli tashkil qilish.

4. Dars mazmunini tahlil qilishda.

- dars mazmunining Davlat ta’lim standarti talablariga mosligi;
- materiallarning ishonchliligi, to’liqligi, tushunarliligi;
- bayon qilinayotgan materialning ilmiy darajasi;
- darsning tarbiyaviy yo’nalishi, ta’limiy ta’sir darajasi;
- darsni hayot, mehnat tarbiyasi va kasbga yo’naltirish bilan bog`lash;
- o’quvchilar tomonidan yangi bilimlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- yangi materialning asosiy g`oyasini ajratish. Yangi tushunchalarni shakllantirish. Tayanch bilimlarning muhimligini ko’rsatish.

5. O’quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish

- Mashq va topshiriqlarning xususiyatlari, mustaqil ishlarning turlari, murakkablik darajasi, o’quvchilar tayyorgarlik darajasining hisobga olinganligi;
- o’qituvchi tomonidan tushuntirish ishlarining olib borilishi;
- o’qituvchining yordami. Yangi materialning o’zlashtirilganlik darajasi;

- yangi mavzuning oldingi mavzular bilan bog`langanligi. Takrorlash (tashkil qilish, shakllari, usullari, hajmi).

6. Dars o'tish metodikasini tahlil qilish

O'qitishning metod, vosita va usullarini tanlashda o'quv materialining mazmuniga, dars maqsadlariga, sinfning imkoniyatlariga mos tanlanganligi va asoslanganligi. O'qituvchi tomonidan darsning har bir bosqichida metod, usullarni to'g`ri qo'llaganligi, ishlatilayotgan metod va usullarning xilma- xilligi. Ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, texnika vositalaridan samarali foydalanilganligi. O'qituvchining metodik qurollanganligini va pedagogik texnikasini baholash.

7. O'quvchilarning darsdagi intizomi va ish faoliyatini tahlil qilish

Sinfga umumiy baho berish. Sinfning diqqati va faolligi. Fanga bo'lgan qiziqishi. O'quvchilarning dars bosqichlaridagi layoqati.

O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish. O'quv faoliyati shakllaridan foydalanishning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash. Umumta'lim va maxsus ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish. Yagona talablarning bajarilishi. Iqtidorli va qoloq o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash. Umumiy va yakka ishlash faoliyatni birgalikda olib borish. Sinfning intizomi va intizomni saqlash usullari.

8. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqati.

Pedagogik etikasi, nutqi, ahloqiy va psixolagik iqlimning tashkil etilishi.

9. O'quvchilar bilimini baholash

O'quvchilarga berilgan bilim, ko'nikma va malakaning sifati. Mustahkam va chuqur bilim berilishi.Foya va materiallarning asosiy tomonlarini ko'rsata olishi, amaliy ko'nikmalarning egallaganlik darajasi.

Tekshirish turlari. Baholarning jamlanganligi.

10. Uy vazifasini tahlil qilish

Uy vazifasini berishdan maqsad va hajmi. Sinfda bajarilgan ish bilan uyga berilgan vazifaning hajmi. Uyga berilgan vazifaning xususiyati (ijodiy, takrorlash, mustahkamlash, rivojlantirish), uy vazifasini berishda o'qituvchining izohi.

Darsni tahlil qilishni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Ilmiy tahlil.
2. Psixologik tahlil.
3. Metodik tahlil.
4. Didaktik tahlil.
5. Umumpedagogik tahlil.

Ilmiy tahlil-berilayotgan bilimlarning ilmiy –nazariy jihatini, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning maqsadga muvofiqligini aniqlash demakdir .

Dars kuzatuvchi har bir rahbar darsning ilmiy tahlilida asosan quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiq bo'ladi :

1. O'qituvchining ilmiy jihatdan (o'zi mutaxassis bo'lgan fanni ilmiy asosda chuqur bilishi) qurollanganligi.
2. Shu kungi darsga ilmiy jihatdan tayyorgarlik holati.
3. O'z mutaxassisligiga oid eng yangi ilmiy –nazariy axborotlar bilan qurollanib borishi.
4. Dars jarayonida ilmiy qoida va ta'riflarning to'g`ri bayon etilishi hamda ilmiy atamalarning o'quvchilarga singdirib borilishi.
5. Darsda ta'limning o'ziga xos xususiyatlarining hisobga olinishi.
6. Darslik materiallarining qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitilishi.
7. O'quvchi bajarayotgan laboratoriya , amaliy hamda mustaqil ishlarning ilmiy yo'nalish bo'yicha maqsadga muvofiqligi.
8. O'quvchilar xulosasining ilmiy jihatdan to'g`ri , qisqa va mukammal bayon etilishi hamda uni o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi.
9. Dars davomida , yangi mavzuni bayon etish jarayonida ta'lim- tarbiya bilan bog`lanishi.
10. O'qituvchi va o'quvchilarning ilmiy nutq madaniyati.

Metodik tahlil – o'qituvchining dars jarayonida qo'llagan usullarining maqsadga muvofiq ekanl igi ta'limning turiga va o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materiallarini o'quvchilarga bayon qilish va tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarning shu materialga mosligi yoki mos emasligi metodik tahlil davomida aniqlanadi.Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan usullarning samaradorligi, rang-barangligi, namunaviyligi uning o'tgan, yangi mavzu materialini o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirib olganliklari bilan belgilanadi. Shu boisdan har bir dars kuzatuvchi (o'qituvchi, direktor , ilmiy bo'lim mudiri, inspektor yoki metodist) dars tahlilining bu

turiga alohida e'tibor bilan qarashi kerak. Dars metodlarini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1.Dars jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining tashkiliy shakllariga ko'ra:

a) hikoya usuli;

b) og`zaki bayon usuli;

v) suhbat usuli.

2. O'quvchilarning o'zlashtirishiga ko'ra:

a) o'qituvchilarning so'zlash usuli;

b) ko'rsatmali qurollardan foydalanish usuli;

v) darslik, konturli karta, diagramma yoki jadvallar bilan ishlash usuli;

g) laboratoriya asboblari bilan ishlash usuli;

d) texnika vositalaridan (informatika elektron hisoblash texnikasi, kinofilm, diafilm, radio, televizor kabilar) foydalanish usuli;

ye) sinf doskasidan, botanika, ekologiya yoki zoologiyaga tegishli bo'lgan turli ko`rgazmadalardan foydalanish usuli kabilar.

Xulosa.O'qituvchining darsini bir necha marta kuzatish va tahlil qilish, uning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarining o'zlashtirishi, bilim darajasi kabi sohaviy va kasbiy layoqati yuzasidan xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga o'zini-o'zi tahlil qilish tamoyili o'qituvchining o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etishga oid maqsadli yo'lni belgilab olishiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ғофуров А.Т., Толипова Ж.О., Файзуллаев С.С., Азимов И.Т., Ахмадалиева Б. Биологияни ўқитишнинг умумий методикаси. Т., 2005 й.

2.Толипова Ж.О., А.Т.Гафуров. Биология ўқитиш методикаси. Методик қўлланма. Академик лицей ва коллежлари учун. Т., 2004 й.

3.Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent,2006 y.

4.Tolipova J.O., A.T.Gafurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. T., 2012 y.

5.S.X.Sulliyeva,Q,G`.Zokirov. Biologiya o'qitish metodikasi.O`quv qo`llanma. Toshkent,2020 y.

THE METHOD OF ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN ELEMENTARY SCHOOL MOTHER TONGUE CLASSES THROUGH INTERACTIVE METHODS

Quldosheva Ug‘iloy
TISU 2-kurs magistranti

Annotation: In this article, it is mentioned about the method of organizing extra-curricular activities in elementary school mother tongue classes through interactive methods.

Key words: Interactive methods, primary class, mother tongue lessons, extracurricular activities, methodology

Organizing extracurricular activities in elementary school mother tongue classes through interactive methods is an effective way to engage students, enhance their language skills, and encourage a love for learning. Here are some key strategies to incorporate interactive methods:

1. Storytelling and Role-Playing

Activity Idea: Have students create and perform short stories or skits in their mother tongue.

How it works: Organize the class into small groups, each tasked with creating a story based on a theme. Students can take on roles, practice speaking in the target language, and engage in dialogue with peers.

Benefits: Enhances verbal communication skills, builds vocabulary, and promotes teamwork.

2. Language Games and Puzzles

Activity Idea: Use games like word searches, crossword puzzles, or memory matching games in the mother tongue.

How it works: Provide students with a set of cards or worksheets that they can work on in pairs or small groups. This can include matching pictures with words or solving puzzles that require the use of the language.

Benefits: Encourages problem-solving, reinforces vocabulary, and makes learning fun.

3. Cultural Days or Language Festivals

Activity Idea: Organize a cultural event where students showcase aspects of their heritage through language.

How it works: Each student or group prepares a short presentation, song, or poem in their mother tongue. This could be part of a larger event that includes displays of food, art, or traditional dress.

Benefits: Builds cultural pride, encourages active language use, and promotes community building.

4. Interactive Storybooks and Apps

Activity Idea: Integrate digital tools like interactive storybooks or language-learning apps that allow students to engage with the language in a fun way.

How it works: Use a projector or tablets to display interactive storybooks, where students can click on objects or characters to hear the words or phrases in the language. Apps can also have games that help with grammar, spelling, and vocabulary.

Benefits: Engages tech-savvy students, offers personalized learning experiences, and can track progress.

5. Language-based Scavenger Hunts

Activity Idea: Organize a scavenger hunt where students search for objects or clues based on instructions in the mother tongue.

How it works: Students are given a list of items or tasks to find, read, or perform, all in their native language. This can be done indoors or outdoors and can include solving riddles or completing language challenges.

Benefits: Encourages critical thinking, increases interaction with the language in different contexts, and adds excitement to learning.

6. Peer Learning and Group Work

Activity Idea: Pair students up or organize small groups where they can teach each other new vocabulary, phrases, or grammar.

How it works: Students can take turns explaining concepts, reading stories, or creating dialogues together. Teachers can facilitate and offer guidance, but the focus is on student-to-student interaction.

Benefits: Reinforces language skills, builds confidence, and promotes collaborative learning.

7. Interactive Language Songs and Rhyme

Activity Idea: Incorporate singing and rhyming activities that are in the mother tongue.

How it works: Teach the students simple songs, rhymes, or chants in their native language, allowing them to act out or dance along.

Benefits: Improves pronunciation, enhances memory through melody, and makes learning enjoyable.

8. Creative Arts Integration

Activity Idea: Use visual arts, like drawing, painting, or crafting, to reinforce language concepts.

How it works: Students can create posters, flashcards, or illustrations related to vocabulary words or stories they are learning. For example, after reading a story in the mother tongue, students can draw scenes from it and label the drawings in the language.

Benefits: Reinforces vocabulary visually, promotes creativity, and connects language with other forms of expression.

9. Language Challenges or Competitions

Activity Idea: Host friendly competitions like spelling bees, poetry recitations, or language trivia.

How it works: Organize competitions where students can compete individually or in teams to demonstrate their skills in spelling, vocabulary, and understanding of the language. Winners can earn small prizes or certificates.

Benefits: Motivates students to improve their language skills and fosters a sense of achievement.

10. Interactive Classroom Discussions

Activity Idea: Hold group discussions on simple topics where students can practice speaking and listening in the target language.

ABSTRACT: Languages changes over time and their evolution is studied by historical linguistics.The Uzbek language belong to the Turkish language family,holds a prominent position in Central Asia .This article provides an in-depth exploration of the historical development of the Uzbek language,tracing it's evolution from its Turkish roots to it's modern form.The article examines the linguistic significance of Uzbek, including its influences, dialect variations,and its role in shaping the cultural and social identity of Uzbek people.Through a comprehensive analysis of historical records, linguistic studies,and cultural factors ,this article sheds light on the rich history and importance of the Uzbek language.

INTRODUCTION

The Uzbek language,with its roots in the Turkic language family,has a fascinating history that spans centuries.This section provides an overview of the significance of studying the history of the Uzbek language and outlines the objectives of the article.

ORIGINS AND EARLY DEVELOPMENT.

The origins of the Uzbek language can be traced back to the ancient Turkic language spoken in Central Asia.The Turkic language family is part of the larger Altaic language family,which includes other languages such as Turkish, Kazakh.The early development of the Uzbek language took place as various Turkic tribes migrated and settled in the region of present day Uzbekistan.These tribes including the Karluk,Oghuz, and Kipchak brought their own dialects and linguistics influences contributing to the formation of the Uzbek language.The Uzbek language particularly its dialects maintains close ties with neighboring Turkic languages such as Kazak and Karakalpak.The linguistic connection between the Turkic speaking peoples in the region.

MODERN STANDARD UZBEK

The emergence of modern standard Uzbek as the official language of Uzbekistan marked a significant milestone in the linguistic development of the Uzbek language.This development was influenced by historical and political factors, particularly during the Soviet era.the process of standardizing Uzbek began in the

early 20 century, during the period of Soviet rule.Linguistics and schoolars worked to create a unified literary language based on the dialects spoken in the region.This standardization process involved selecting a specific dialect as the basis for the standardized language,adopting certain grammatical norms, and establishing a standard vocabulary.Linguistic reforms were implemented to enhance the clarity and affectiveness of communication in Uzbek.these reforms aimed to simplify the grammar improve the writing system and ensure consistency in usage across various domains.The goal was to create a language that could be used in education administration media and literature.One significant change during the Soviet era was the adoption of the Cyrillic script for writing Uzbek replacing the Arabic script that had been used for centuries.The Cyrillic script was seen a more suitable for representing the phonetic features of the Uzbek language.However following Uzbekistans independence in 1991, there was a shift toward reclaiming the cultural and historical heritage of the Uzbek language.As a result ,in 1993 Uzbekistan transitioned to the latin script which was more closely aligned with the original Turkic writing system.In independent Uzbekistan, language planning efforts have focused on preserving and developing the Uzbek language.Efforts have been made to promote the use of Uzbek in education media and public instructions ensuring its continued grows and vitality.Language policies aim to balance the preservation of cultural heritage with the need for linguistic modernization and adaptation to contemporary needs.

DIALECTS AND RAGIONAL VARIATIONS

The Uzbek language exhibits dialectical variations across different regions, influenced by geographical, historical and cultural factors.These dialects reflect the linguistic diversity within the Uzbek speaking community and contribute to the rich tapestry of the language.While there are several Uzbek dialects the major ones include northern Uzbek, southern Uzbek and central Uzbek.

Northern Uzbek dialects are spoken in the northern regions of Uzbekistan, including Tashkent, Samarkand and Bukhara.These dialects have been influenced by the surrounding Turkic language such as Kazak and Karakalpak.Northern Uzbek dialects features vowel harmonization and spasific phonetic characteristic and distinguish them from other dialects.

Southern Uzbek dialects are spoken in the southern regions of Uzbekistan including Surkhandarya Kashkadarya.These dialects have been influenced by Persian and Tajic language, resulting in a significant number of loanwords.Southern Uzbek dialects often exhibits distinct phonetic variations and lexical differences compared to other dialects.

Central Uzbek dialects form a transitional zone between the northern and southern dialects and are spoken in regions such as Navoi, Jizzakh and Syrdarya.Central Uzbek dialect display a mixture of features from both the Northern and southern dialects, making them a bridge between the two

ROLE OF UZBEK LANGUAGE IN CULTURAL IDENTITY

The Uzbek language holds a crucial position in the cultural and social identity of the Uzbek people.It serves as a vehicle for the vehicle for the expression and preservation of cultural heritage traditions and values.Literatire has played a particulary important role in shaping the cultural identity of Uzbek-speaking communities.Prominent Uzbek poets and writers such as Alisher Navoiy,Chulpan and Abdullah Qadiriy have contributed immensely to Uzbek literature creating works that reflect the Uzbek cultural ethos and historical experiences.Uzbek literature encompasses various genres, including poetry, novels,plays and folklore and provides a platform for exploring and celebrating the Uzbek identity.Music and performing arts also rely heavily on the Uzbek language to convey emotions ,stories and cultural themes.Traditional Uzbek music such as maqom and shashmaqom,often incorporates lyrics in Uzbek exploring themes on love,nature and devotion.Folklore, including proverbs,tales and epic poems, showcases the linguistic richness and oral storytelling traditions of the Uzbek people.

CONCLUSION

The scientific article summarizes the historical development of the Uzbek language,from its Turkic origins to its modern form.It highlights the linguistic significance of Uzbek,its influences, dialect variations,and its role in shaping the cultural and social indetity of the Uzbek people.By understanding the rich history of the Uzbek language,scholars, linguistic and policymakers can gain valuable insights into the linguistic diversity and cultural heritage of Central Asia.

REFERENCES

1.Collection of settled works.Tashkent,1960

2.Tursunov,Yarbayev.B,Aliyev A , History of Uzbek literary language, Tashkent 1995.

3.Karimov.G, history of literature Tashkent 1987

Orzu,armonlari ifodasi yoxud Bobur mirzo izidan
(Shoh va shoir Z.M.Bobur tavalludining 542 yilligiga bag'ishlanadi.)

Muallif: O'zbekiston Respublikasi IIV 2-sonli Toshkent akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi Meyliyeva Saodat Ismatovna.

...Samarqand nechta hukmdorlar uchun orzu ,armon bo'lgan bu shahar. XV-XVI asrlarda buyuk Amir Temur va temuriylar poytaxti bo'lgan bu shahar jahonning ko'zi gavhari edi... Balki,

"Samarqand sayqali ro'yi zamin ast ,
Buxoro mash'ali islomi din ast ." -degan ta'riflar o'sha davrlarda yozilgandir.



...Tarixda shunisi qiziqki buyuk bobosi Amir Temurning poytaxti bo'lgan bu shaharni egallash va butun Movarounnahrni temuriylar bayrog'i ostida birlashtirib yagona davlatga aylantirish barcha temuriyzodalar Bobur mirzoning amakisi Sulton Ahmad mirzo va uning farzandlari bo'lgan Boysunqur mirzo va Sulton Ali mirzolar ,shu jumladan Sulton Ahmadning jiyani bo'lgan Bobur mirzoning ham bir umrlik orzusi edi... Samarqand orzusi yo'lida 15-16 yoshida yigitlikning eng balog'at davrlarida yosh Bobur mirzo qancha mashaqqatlar chekmadi deysiz....

Olloh borki ,hayot doimo g'oliblarni taqdirlaydi va o'zi suygan bandalarining bardoshini azob-uqubatlar bilan sinaydi. Shuni aytmoq joizki,yosh Bobur mirzo necha bor Samarqand sari intilgan bo'lsa barchasida buyuk bobosi yurtini egalladi. Ammo uning bardoshi or-nomusi,vijdoni hayot sinovlariga duchor bo'ldi va barchasiga mardlarcha dosh bera oldi.

1495-1496 yil qish fasli Bobur Mirzo Buxoro va Hisor sultonlari bilan birlashib Samarqandni qamal qildi.Lekin qamal natija bermay sultonlar iziga qaytdilar, Bobur mirzo esa oxirigacha kurashdi. Samarqand sulton Boysunqur mirzoga tegishli bo'lib ,bu sulton Muhammad Shayboniyxon bilan ittifoq tuzadi

.Qozoq xoni unga yordamga kelganda uning o'zidan cho'chigan Boysunqur mirzo ittifoqchisini shaharga kiritmaydi .Konigilda to'xtagan hafsalasi pir bo'lgan Muhammad Shayboniyxon Turkistonga qaytib ketadi, 1497 yil may oyida Bobur mirzo Samarqandni egalladi. Boysunqur mirzo qochib ketadi. Yom qishlog'ida qarorgoh qurgan Bobur mirzo Samarqandni jangsiz egalladi va 100 kun boshqardi .Yosh Bobur mirzoning sabr-toqati shu tariqa mukofotlandi. Boysunqur mirzoning ukasi Sulton Ali mirzo esa Qarshi va Buxoro atroflarini egallagan edi.Bobur mirzoga Andijonda fitna qo'zg'alishi ukasi Jahongir mirzo tarafdorlarining hokimiyat uchun kurashi ,amakisi Sulton Ahmad mirzoning Farg'onaga hujumi og'ir zarba bo'ldi.Ota yurtidan mahrum bo'lish qayg'usi Bobur mirzoni Samarqanddan ketishiga sabab bo'ldi .Taqdir inoyatini qarangki, Bobur mirzo Andijon tomon yo'lga chiqsin,xuddi shu vaqtda Farg'ona Quvasoyda yog'och ko'prikdan qo'shini bilan o'tayotgan keksa Sulton Ahmadxon eski ko'prikdan yiqilib vafot etadi ,Farg'ona va Andijon yurti yana Bobur mirzo ixtiyorida qoldi.... Bobur mirzo ukasi Jahongir mirzo atrofidagilar bilan oralarida nifoq bo'lishini istamas edi.Bobur mirzoning sodiq amirlari bosh vazir Qosimbek qavchin,Shayx Mazidbek va Boboquli,Boboalibeklar doim uni qo'llab turdilar ,lekin amirlaridan Ahmad tanbal va Uzun Hasan uning Samarqandda ekanligidan foydalanib Andijon taxtiga ukasi Jahongir mirzoni o'tqizadilar.Kichik ukasi Nodir mirzo tarafdorlari Andijonga yurish uyushtirib shaharni egallaydilar va Andijonni Bobur mirzoga topshiradilar. 1500 yil fevralida Bobur mirzo Jahongir mirzo tarafdorlari bilan sulh tuzadi.Sirdaryoning shimoli va Axsi qal'asini ukasi Jahongir mirzoga berdi .O'zi esa Sirdaryoning janubi va Andijon hukmdori bo'ldi.

1500 yil kuzi Movarounnahr hukmdori bo'lgan Sulton Ali mirzo akasi Boysunqur mirzoning xatosini takrorlab onasi Zuhrabegim orqali Bobur mirzoga qarshi yashirincha Muhammad Shayboniyxon bilan ittifoq tuzadi .Samarqand shahrini hiyla yo'li bilan jangsiz egallagan Muhammad Shayboniyxon va'dasida turmay Sulton Ali mirzoni qatl etib ,Sulton Ahmadxonning rafiqasi Zuhrabegimni 5 xotinli qassob amirga hadya qilib yuboradi .Bu temuriyzodalar uchun juda katta nomussizlik edi .Samarqand shayxulislomi Abulmakorim yana Bobur mirzoga elchi yuborib uni Samarqandni egallashga undaydi... Urushlar tufayli Bobur mirzoning 240 askari qolgan edi.Sulolasi manfaatlariga sodiq bo'lgan Z.M.Bobur mirzo 1500 yil kuzida Samarqandga qo'shin tortadi va yana Samarqndni ikkinchi bor egallaydi.Bobur mirzo endi 19 yoshda edi.Samarqand ahli Bobur mirzoga o'z sadoqatini izhor etadi.Bobur mirzo katta kuch yig'ib 1501 yil Saripul degan joyda M.Shayboniyxon bilan ikkinchi bor to'qnashdi Lekin jangda yengiladi va Samarqandga chekinadi.Keyin amakisi Xuroson hukmdori sulton Husayn Boyqaro va Qoshg'ardagi tog'asi sulton Mahmudxondan yordam so'raydi. Olti oylik

qamaldan so’ng Muhammad Shayboniyxon Boburning opasi Xonzodabegimga sovchi yuboradi va sulh taklif qiladi,50 yoshli bu nomussiz hukmdorning befarosatligi yosh Bobur mirzoning qahr-g’azabini keltiradi.Lekin qamaldan omon chiqishning boshqa iloji yo’q edi.Buvisi Eson Davlatbegim,boburiylar oilasi taqdiri ,saroy ahli,qolaversa qolgan qo’shinning hayoti,omonligi evaziga vaziyatni Bobur mirzoning onasi Qutlug’nigorxonim va opasi go’zal Xonzodabegimga tushuntiradi.Bobur mirzoning rozi bo’lmasligini sezib opasi Xonzodabegim qolganlar omonligi evaziga bu nikohga rozilik beradi.

Shunday qilib Bobur mirzo Farg’ona yo’li orqali Pomir tog’lari orqali Qobulga oa meros mulkiga ketishga majbur bo’ladi . Bobur mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523-1603 y) “Humouyunnoma”asarida yozishicha “ ...Jami: 250 ga yaqin kishi Bobur mirzo izidan Surxon dashtlari bo’ylab bir vaqtlar bobosi Abu Said mirzo Boburning otasi Umarshayx mirzoga mulk qilib bergan Qobulga va Badaxshon sari yo’l oldilar ....Yo’l olis,otlar horigan ,oziq-ovqat yetishmasdi .Hamrohlari ichida ayollar,bolalar bor edi ,O’z taqdiridan xafa bo’lib ketgan Surxon dashtlarini yalang oyoq kezgan Bobur mirzoning quyidagi g’azali balki shu davrda yozilgandir:

Kim ko’ribtur, ey ko’ngul, ahli jahondin yaxshilig’,
Kimki ondin yaxshi yo’q ,ko’z tutmaondin yaxshilig’.
Gar zamonni naf’i qilsam, ayb qilma, ey rafiq.
Ko’rmadim hargiz, netayin , bu zamondin yaxshilig’.



Adabiyotlar :

1.Z.M.Bobur " Boburnoma" T-2017 yil
2.M Mo'minov"Samarqand tarixi .1-qism.T."Fan" nashriyoti .1971 yil.
3.A Qayumov "Zahriddin Muhammad Bobur "T."Fan" nashriyoti .2008 yil.

BO‘SH VAQT HODISASINING IJTIMOIY MAZMUNI VA QIYMATI.

Rustamov Farrux Rustam o‘g‘li, f.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada bo‘sh vaqtning ijtimoiy mazmuni, uning mohiyati, ijtimoiy jamiyat uchun hayotiy zarurat ekanligi, bo‘sh vaqtning jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashish jarayonida namoyon bo‘lish holati, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etishga oid Sharq allomalarining pedagogik qarashlari talqini, hamjihatlikka erishish jarayonida shaxsning rivojlanishi uchun yuzaga keladigan imkoniyatlar haqida ilmiy tahliliy ma’lumot va nazariyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘sh vaqt, ijtimoiy jamiyat, hayotiy zarurat, jamiyat manfaatlari, hamjihatlik.

Аннотация. В статье излагается социальное содержание досуга, его сущность, жизненная необходимость для социального общества, состояние проявления досуга в процессе гармонизации с интересами общества, интерпретация педагогических взглядов восточных ученых на содержательную организацию досуга, научные аналитические сведения и теории о возможностях, возникающих для развития личности в процессе достижения гармонии.

Ключевые слова: досуг, социальное общество, жизненная необходимость, интересы общества, сплоченность.

Annotation. The article describes the social content of free time, its essence, the fact that it is a vital necessity for Social Society, the state of manifestation of free time in the process of harmonizing with the interests of society, the interpretation of the pedagogical views of Eastern allomas on the meaningful Organization of free time, scientific analytical information and theories about the opportunities

Keywords: leisure, social society, vital necessity, the interests of society, harmony.

Kirish.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng yoshlarga e'tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini oshirish borasida muhim shart-sharoitlar yaratildi. «Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi, bundan buyon ham eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi»[1] . Hozirda jamiyatni harakatlantiruvchi «lokomotiv»ga aylangan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga daxldorlik ruhida tarbiyalash, bandlik, bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish, ularning kundalik

hayotidagi muammolarni o‘rganish tadqiqot mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning dolzarbligi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”, 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-sonli “Yoshlar kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida”, 2018 yil 25 sentyabrdagi PF-5545- sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonlari va shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda yoshlarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish to‘g‘risida vazifalar belgilab berilgan.

Asosiy qism: Bo‘sh vaqtning ijtimoiy mazmuni ishlab chiqarish yoki hayotiy zarurat masalalari bilan band bo‘lmagan vaqtni jamoa, jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashish jarayonida namoyon bo‘ladi. Ayni vaqtda jamiyat va jamoadagi yakdillik hamda hamjihatlikka erishish jarayonida shaxsning rivojlanishi uchun ham katta imkoniyat yuzaga keladi.


Bo‘sh vaqtning ijtimoiy mazmuni dam olish muddati maydonidan konstruktiv foydalanish, mavjud imkoniyatlarni samarali ro‘yobga chiqarishda namoyon bo‘ladi. Hordiq hodisasi esa natijaviy ma’noga ega bo‘lib, dam olishdan nechog‘li foydalanishni ifoda etadi.

Bo‘sh vaqt[1] - bu insonning ishlash, uxlash, ta’lim olish vaqtidan tashqari, ijtimoiy faoliyat va o‘zaro munosabatlarga ajratilgan vaqt bo’lib, uning shakllantirilishi shartlilik, erkinlik, tanlov kabi o’ziga xos talablar bilan belgilanadi. Bunda:

- ✓ shartlilik: bo‘sh vaqt ijtimoiy aniq mehnat faoliyati bilan bog‘liq emas.
- ✓ erkinlik: bo‘sh vaqt ijtimoiyni inson o‘zining xohishiga ko‘ra tashkil etadi.
- ✓ tanlov: bo‘sh vaqt ijtimoiyda inson o‘zini erkin his qiladi va qanday faoliyat bilan shug‘ullanishini o‘zi tanlaydi.

Bo‘sh vaqt quyidagicha tuzilishga ega (1-rasmga qarang).

[1] Mualliflik yondasuvi



1-rasm. Bo‘sh vaqt quyidagicha tuzilishi

Bo‘sh vaqtning ijtimoiy hayotdagi o’rni va ahamiyati:

✓ ijtimoiylashtirish: bo‘sh vaqt ijtimoiy insonning jamiyatga kirishishi va ijtimoiy normalarni o‘zlashtirishiga yordam beradi.

✓ hissa qo‘shish: bo‘sh vaqt ijtimoiy insonning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilaydi.

✓ o‘zini o‘zi rivojlantirish: bo‘sh vaqt ijtimoiy insonning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishiga yordam beradi.

✓ ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish: bo‘sh vaqt ijtimoiy insonning doslar, oila a’zolari va hammaslar bilan aloqalarni rivojlantirishiga yordam beradi.

✓ madaniy merosni saqlash va rivojlantirish: bo‘sh vaqt ijtimoiy insonning madaniy merosni saqlashi va rivojlantirishiga yordam beradi.

Ta’kidlash joizki, har bir kishi bo‘sh vaqtni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etadi. Bo‘sh vaqtlarda inson har qanday faoliyatga, xususan, ijodiyot, iste’molchi, konstruktiv, bandlik, halokatli faoliyat bilan mashg‘ullik va boshqalarga berilishi kuzatiladi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlarida bo‘sh vaqtning mazmuni va qiymati kasbiy faoliyatdagi va bevosita mehnat jarayonlariga oqilona yondashishni baholash negizida tasniflangan.

Xususan, «Majolis ul-nafois» tazkirasida Alisher Navoiy o‘z davridagi taniqli shaxslarning bilim darajasi, axloqi, dunyoqarashi, mehnatga munosabatini tavsiflab, ularning bo‘sh vaqtida nimalar bilan va qanday tarzda mashg‘ul bo‘lishi kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratgan. Har bir shaxsga tavsif berish jarayonida uning bo‘sh vaqtda yaratgan ijodidan namunalar ham keltirib, ularning qiziqishlariga alohida ahamiyat qaratgan. Mutafakkir bo‘sh vaqtdan oqilona me’yorga rioya qilgan

holda foydalanishga da’vat etib, mabodo me’yor chegarasi buzilgudek bo‘lsa, inson hayotining mazmuni va shakli o‘zgarib ketishi mumkinligini ta’kidlaydi. Navoiy ayrim zamondoshlarining qiziqishi ustun kelib, ko‘p yillik tirikchilik manbai bo‘lgan kasbi korini ham o‘zgartirganligi haqida ma’lumot bergan49.

Ma’lumki, musiqa — insonning ma’naviy kamolotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bo‘sh vaqtni musiqaga bag‘ishlash keng yoyilgan. Musiqa shaxsning jamiyatga ijtimoiylashuviga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiy musiqaning inson ruhiyatini yuksaltirishni ta’kidlab, uning xotirjamlik va jangovarlikka, sokinlik va jo‘shqinlikka yetaklashi, yig‘latishi va kuldirishi, kayfiyatini ko‘tarishi xususiyatlarini tahlil qiladi. Bu holatlar insonni ruhiy, aqliy va jismoniy chiniqtirishi, charchog‘ini chiqarishi, unga hordiq bag‘ishlashi ulug‘ mutafakkir tomonidan qilingan aniq tasnifda namoyon bo‘ladi.

Navoiy musiqa bobida 18 nafar ijodkorni qayd etib ulardan to‘rt nafariga alohida to‘xtaladi. Xususan, Xoja Abdulvafoyi Xorazmiyning musiqiy salohiyati haqida shunday fikrlar bayon etadi: «Xorazm xalqi g‘oyat malakiy sifotlig‘idin Xojani «yer farishtasi» derlar erdi va Xoja ulumi zohiriy va botiniyni takmil qilib erdi. Va tasavvufda yaxshi musannofoti bor va mashhurdurkim, ulumi g‘ariba ham bilur erdi. Advor va musiqiy ilmida dag‘i mahorati bor erdi»50.

Binobarin, hazrat Navoiy nazarida she’riyat-ruhiy kamolotning o‘ziga xos darajasini namoyon qiluvchi, insonning tuyg‘ularini junbushga keltiruvchi, ma’naviy ozuqa beruvchi ne’mat hisoblanadi.

Xususan Alisher Navoiy ulug‘ mutafakkir Ustod Qulmuhammad haqida shunday fikr berib, uning ruhiy dunyosining nechog‘li kengligiga e’tibor qaratadi: «Tolibi ilmliqqa dag‘i mashg‘uldur. O‘zga ushoq fazoyili ham bor: ma’rifati taqvimdek, naqqoshlikdek, xatdek. Ammo ud va g‘ijjak va qo‘buzni asrida oncha kishi chala olmas va muammo qavoidin ham mazbut bilur»51.

Shuningdek, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy Xoja Kamoliddin Husayn haqida ham fikr yuritib, bo‘sh vaqt insonning nafaqat ruhiy kamolotini ta’minlaydi, balki inson ta’bi, estetik saviyasi, didiga ham ta’sir ko‘rsatishni ta’kidlaydi: «nechuk kim, ul vazir erdi, bu vazorat mansabin tay qildi va holo ashrofi oliy martabasida mutamakkindur. O‘zi muloyim yigitdur. «Noma» xatin yaxshi bitir. Va derlarki, musiqiyda ham daxli bor va ba’zi naqshlarni anga mansub qilurlar. Tab’i yaxshidur»

Ma’lumki, sport insonni jismoniy hamda ruhiy va aqliy salomatligini mustahkamlaydi. Shaxsni chiniqtirib, kamolotga yetkazadi. Shu boisdan ham sport bo‘sh vaqtni o‘tkazishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Sport turlari orasida aql gimnastikasi hisoblangan shaxmat ko‘p asarlik, uzoq tarix ega. Qadimda shatranj

nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu mashg‘ulotning bo‘sh vaqtdagi o‘rni haqida Alisher Navoiy shunday yozadi:

«Mir Murtoz kecha tong otquncha va kunduz oqshom bo‘lg‘uncha ishi mutolaa erdi va shatranjg‘a andoq mag‘lubdurkim, bir harif ilgiga tushsa, xalos bo‘la olmas. Bu jihatdin hariflar andin qocharlar. Mashhurdurkim, agar ikki harif ilgiga tushsa, biri bila o‘ynab, yana birining etagin berk tutib o‘ltururkim, biri qochsa, bori biri ilgida bo‘lg‘an. Ba har taqdir andoq benazir kishi oz bo‘lg‘ay»53.

Alisher Navoiyning insonni takomillashtirish maqsadi pirovard nuqtada bo‘sh vaqt imkoniyatlarini keng ochish va shaxsni jamoaga ijtimoiylashuviga olib keladi. Shuningdek, Alisher Navoiy asosiy mehnat faoliyatidan tashqaridagi vaqt tasarrufini aql omili va me’yorga rioya qila olish tamoyili bilan bog‘laydi.

Shuningdek, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy bir qancha asarlarida hordiqni bo‘sh vaqtdan olinadigan ijtimoiy foyda ma’nosida qo‘llab, undan samarali foydalanish yuzasidan o‘z qarashlarini bildirib o‘tgan. Jumladan, Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» («Qalblar mahbubi») asarida «safar» so‘zi sayr, sayohat, ziyorat qilish, qadamjo va yaqin qarindoshlarining qabrlarini, ustoz va ulug‘ shaxslarni tavof qilish kabi sifatlar bilan e’tirof etilgan. Asarning uchinchi qismidagi «Safar manofii zikrida» nomli 108-tanbehda safar ma’naviy ruhi sust odamlarni faollashtiruvchi, xom odamlarni pishiruvchi va tanovul etilgan taomlarni singdiruvchi, odamlarni olam ajoyibotlaridan bahramand etuvchi, g‘aroyibotlar dunyosidan xabardor qiluvchi omil sifatida ta’riflangan. Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish, fayzli ulug‘ zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safarligi ta’kidlangan. Safar ko‘ngil vayronligini tuzatib, ruh ko‘zgusini ravshan qilishi aytilib, quyidagi fikrlar keltirilgan: «Har kishvarning oroyishini va har manzilning osoyishini safar ahlidin so‘r va musofirdin ko‘r. Safar qilmag‘on orom farog‘atin qayda bilsun va g‘urbat chekmagan vatanda komraf ohiyatin ne nav’ ma’lum qilsun... ».

Hordiqning birinchi va eng muhim qiymati **jismoniy kuch va aqliy muvozanatni** tiklashga xizmat qiladigan **harakat deb** baholasak, inson yo‘qotgan energiyasini, ya’ni, asosiy ehtiyojini qondirmasdan turib, ikkilamchi ehtiyojlar ro‘yobi bo‘yicha harakatning murakkabroq shakllariga o‘ta olmaydi. Odatda, dam olib bo‘lgan odam ijtimoiylashishning yengil shakllari, ya’ni, do‘stlar davrasi, muloqot, o‘yin-kulgiga bo‘lgan tabiiy ehtiyojni sezadi. Yurish, sayohat qilish, suhbatlashish, o‘qish, sport va yopiq o‘yinlar, kino, teatrga borish va turli xil sevimli mashg‘ulotlar bilan bandlikni hordiqning keyingi bosqichi deyish mumkin.

Ijodkorlik — bu eng erkin faoliyat turi. Inson hayoti ijodkorlik, ijodiy faoliyat uchun joy bo‘lgan taqdirdagina to‘la bo‘lishi mumkin. Chunki aynan ijodda inson

o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Dam olishning keyingi uchinchisi **tafakkurdir.** Tafakkur qilish lahzalarida odam o‘zini dunyo bilan birligini, undagi o‘rnini anglaydi. Tafakkur yuritish, o‘ylash, mulohaza qilish insonni nafaqat kamolotga undaydi, balki tinchlantiradi, muvozanatni saqlaydi. Tafakkurning fantaziyali tafakkur, tarixiy tafakkur va o‘z taqdiri ustida o‘ylash kabi turlari mavjud. Tafakkur qilishning ekzistensial muhiti ham yolg‘izlik muhitida yuz beradi. Lekin odam uzoq vaqt yolg‘iz qolishi mumkin emas.

Hordiqning to‘rtinchi bosqichi **ma’rifatdir**. Ma’rifat keng ma’noda bilim, kasb, voqelik sirlarini puxta o‘zlashtirish va boshqalarga uzatishni ifoda etadi. Boshqalarni ma’naviy-intellektual yoxud kasbiy boyitishga yo‘nalmagan intellekt – ma’rifat bo‘la olmaydi. Ma’rifat klassik madaniy meros, birinchi navbatda fan, san’at, falsafa qadriyatlarini o‘zlashtirish va yoyishda namoyon bo‘ladi. Insonni ma’rifiy yo‘l bilan ijtimoiylashtirishning eng muhim elementlaridan biri bo‘lgan bayramlar, ma’raka va marosimlar hordiqning beshinchi bo‘g‘inidir. Zero,bayramlar jamoat, birodarlik tuyg‘usini yaratadi.

Xulosa. Bo‘sh vaqtdan ongli foydalanish qadriyatlar tizimi va qadriyatlar iyerarxiyasini tarkiban va mazmunan shakllantiradi. Bunda odam oddiy shakllardan murakkabroq shakllarga, iste’mol qilish va madaniyatni o‘zlashtirishdan – ijodkorlikka, tor guruh, oilaviy faoliyatdan – ijtimoiy va madaniy yo‘nalishga o‘tadi. Dam olishning har bir bosqichi dam olish va hordiqiy faoliyatni tanlash bo‘yicha farq qiladi. Eng muhimi, hordiqni tashkil etishda maxsus dominant manfaat omili yashirin mujassamlashgan bo‘lib, u yoki bu qiymatni o‘zida ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, «O‘zbekiston» nashriyoti 2017 y. 485bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qadriyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild.-Toshkent –«O‘zbekiston», 2017. 295 bet.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – «O‘zbekiston». – 2017. 47 bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. 464 bet.

6. Argonov V. Yu. The Pleasure Principle as a Tool for Scientific Forecasting of Human Self-Evolution (англ.)// Journal of Evolution and thechnology: journal. 2014.-Vol. 24. P. 63-78.

BIR TOMONLAMA CHAYNASH VA PSIXOEMOTSIONAL ZO'RIQISHNING TISH-JAG' TIZIMIGA TA'SIRI

Axtamova Irodaxon Akbarovna
Klinik fanlar kafedrasi assistenti
Alfraganus universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Rezyume. Tish- jag' tizimida nuqsonlar mavjud bo'lganda, bemorlarda ustun tomonda emas, balki moslashgan chaynashning yangi odati paydo bo'lishi kerak, bu esa pastki jag'ning harakatlanishining yangi yo'nalishini yaratadi. Bu esa chaynov muskullari, chakka-pastki jag' bo'g'imi va tishlarning paradont holatining odatdagi faoliyatiga ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida turli asoratlarga olib keladi.

Kalit so'zlar: chakka mushagi, chaynov mushagi, eletromiografiya

Maqsad. o'smirlarda chakka va chaynov mushaklarining yetakchi qo'l va chaynashning yetakchi tomoni bilan o'zaro mosligi aniqlash va taqqoslash.

Tekshiruv materialli va usullari: Tadqiqotda 13-15 yoshdagi 97 nafar bemor shu bo'limga ortodontik davolanish maqsadida murojaat qilgan o'smir bolalar qatnashish uchun tanlangan. Tadqiqotda 3 ta guruh yaratildi: yetakchi o'ng qo'li bo'lgan bemorlar, yetakchi chap qo'li bo'lgan bemorlar va ambidekstor bemorlari - ikkala qo'lning funktsiyalarini teng rivojlantiradigan shaxslar.

Tadqiqotga ob'ektlarni tanlab olishda ortognatika tishlovi bor bilan to'liq tish qatoriga ega, jismoniy zo'riqishga chidamli bo'lgan, hamda tadqiqotda ishtirok etishga rozilik berish kabi mezonlarga asoslandi. Tadqiqotdan chetlashtirishda esa tish qatori nuqsonlari mavjudligi, paradont, yuz -jag' sohasi yumshoq va qattiq to'qimalari kasalliklari, ichki a'zolarning surunkali kasalliklari sabab bo'ldi.

Elektromiografiya uchun yuzaki bipolyar elektromiografiya usuli qo'llanilgan. Ushbu usulning afzalligi mushaklar traktsiyasining profilini, chaynov mushaklarining vaqt faolligi davrlarini, mushaklar harakatini rivojlantirishning magnitudasini baholashni, shuningdek mushaklarning charchashining boshlanishi va darajasini aniqlash qobiliyatidir.

Tadqiqot natijalari. Chaynash paytida chaynov va chakka mushaklari o'rtacha amplitudalarining qiymatlari jag'larning markaziy okklyuziyasida va «zo'riqish» yuklar ostida tish qatorning maksimal aloqasiga erishilgunga qadar yopish paytida chaynov va chakka mushaklarining o'rtacha amplitudasi qiymatlariga qaraganda eng past bo'lgan. Shunday qilib, chaynash paytida o'ng "yetakchi" qo'li o'smirlarda (30,09±0.54 mkV) bo'lgan bemorlar chap chakka mushakning Acp qiymati 85,7% ga kam bo'lgan jag'larning markaziy okklyuziyasida tish

qatorlarining maksimal kontaktida va chap chakka mushagining Acp qiymatiga (189.93) qadar yopish vaqtida chap chakka mushagining Acp qiymati (210,32±1.95 mkV± 1,12 mkV) «zo'riqish» yuklar ostida 84,2% ga kamligi aniqlandi. O'ng chakka mushagining Acp qiymati (35,57±0,79 mkV) chaynashda 84,5% kamga bo'lib jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal kontaktiga va o'ng chakka mushagi Acp qiymatiga (198,74±1,1) qadar yopish vaqtida o'ng chakka mushagining Acp qiymatlari (229.06±2.25 mkV 8mkV) «zo'riqish» yuklar ostida 82,1% ga kam. Chaynash 74,8% kamga bo'lganda o'ng "yetakchi" qo'li o'smirlarda chap chaynov mushagining Acp qiymati (67,10±0,63 mkV) chap chaynov mushagining Acp qiymatidan (67,10±0,63 mkV) chaynash 74,8% kam bo'lganda jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal kontaktiga va chap chaynov mushagining Acp qiymatiga erishilgunga qadar yopish vaqtida o'ng "yetakchi" qo'li o'smirlarda o'ng chaynov mushagining (265,82±2,15 mkV) Acp qiymatlari (209,80±2,26 mkV) «zo'riqish» lar ostida o'ng "yetakchi" qo'lli o'smirlarda 68% ga kamligi aniqlandi. O'ng "yetakchi" qo'li bo'lgan bemorlar «zo'riqish» yuklamalar paytida o'ng "yetakchi" qo'l bilan o'ng chaynov mushagining Acp qiymati 258, 68±2,01 mkV, bu chap chaynov mushagining Acp qiymatidan 18,9% ga yuqori (209,80±2,26 mkV). «zo'riqish» yuk ostida o'ng va chap chakka muskullar biopotensiallarining o'rtacha amplitudasi qiymatlari past (198,74±1,18 mkV va 189,93±1,12 mkV mos ravishda), o'ng va chap chaynov mushagining o'rtacha amplitudlari qiymatlari bilan solishtirganda (258,68±2,01 mkV va 209,80±2,26 mkV mos ravishda). Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashqlar paytida asosiy ishni chaynashning ishchi tomonidagi mushaklar, balanslashtirish tomonida pastki jag'ning kengaytmasi kuzatiladi, okklyuziya kuchining asosiy qismi chakka mushaklari tomonidan yaratiladi.

Tekshiriluvchi o'ng "yetakchi" qo'l bilan chaynaganda, o'ng chaynov mushagi Acp qiymati eng yuqori bo'lgan va 71,83±0,97 mkV tashkil etdi, bu ko'rsatkich chaynash paytida chap chaynov mushagi Acp qiymatidan (67,10±0,63 mkV) 6,6% ga ko'proq. Chaynash paytida chap chakka mushagining Acp qiymati 30,09±0±54 mkV bo'lib, chaynash paytida o'ng chakka mushagining (35,57±0,79 mkV) Acp qiymatidan 15,4% kam bo'lgan.

Elektromiografik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'ng "yetakchi" qo'lga ega bo'lgan o'smirlar o'ng tomonda chaynov mushagi va chakka mushagining o'rtacha amplitudalarining qiymatlari kattaroq bo'lib, bu o'ng mushaklarning chap tomondan ustunligini ko'rsatadi. Bu pastki jag'ning biroz ko'chib ketishi bilan chaynashning odatdagi tomonidagi tish qatorlarining zich yopilishiga olib keladi.


Shu bilan birga, bu narsa tishlarga yukni noto’g’ri taqsimlanganligi sababli juda noqulay.

Tadqiqotning keyingi bosqichi o'ng "yetakchi" qo'l bilan bemorlar chakka va chaynov mushaklarining simmetriya indekslarini aniqlashdan iborat bo'ldi. EMG ma'lumotlariga ko'ra olingan natijalarni tahlil qilishda, o’smirlar jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal kontaktiga erishilgunga qadar va «zo’riqish» yuklamalari paytida bu indekslarning kamayishiga qadar yopishish vaqtida chakka va chaynov mushaklarining simmetriya indekslari oshganligini ko'rsatdi (3,5-jadval).

O'ng "yetakchi" qo'lli o’smirlar jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal kontaktigacha yopilish vaqtida chakka mushaklarning simmetriya indeksi 77,41±2,05%, bo'lib, «zo’riqish» yuklar davridan 13,1% ga ko'proqdir (67,25,25±1,22%). Bu «zo’riqish» yuklamalar ostida chakka mushagining simmetrik ishlarining kamayishini ko'rsatadi. Vaqtinchalik mushaklar okklyuziya o'qining yo'qolishidan so'ng, ko'proq qisqarish tufayli pastki jag'ini tekislashga harakat qiladi.

XChMSI jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal kontakti holatida 79,95±2,23% ga, «zo’riqish» vaqtida yopish vaqtida 67,44±1,95%ga, bu jag'larning markaziy okklyuziyasidagi tish qatorlarining maksimal kontaktiga erishilgunga qadar yopishish vaqtidadan 15,6% ga kam. Bu esa chaynov mushagining simmetrik ishlarining kamayishini, shuningdek, «zo’riqish» yuklamalari ostida chakka mushagini ko'rsatadi (3.2.3-rasm).

«Zo’riqish» yuklar ostida ChMSI va XChMSI markaziy okklyuziyada tish qatorlarining maksimal aloqasiga erishilgunga qadar yopish paytidagi ChMSI va XChMSI ko'rsatkichlariga qaraganda kamroq qiymatlarga ega. Bu esa tananing pastki jag'ni oldinga surish va "chaynashning ishchi segmenti" tufayli kontaktlarni kamaytirish orqali inson tanasining ishini «zo’riqish» yuklar ostida muvofiqlashtirish harakat qilishini ko'rsatadi. Bu esa pastki jag'ni kamroq kuch bilan barqarorlashtirish masalasini yechishga imkon beradi.



3.2.3-rasm – O'ng "yetakchi" qo’lli o’smirlar muskullarning turli funktsional holatlaridagi ayrim indekslari ko'rsatkichlari

Jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal kontakti yetilgunga qadar yopishish vaqtida o'ng "yetakchi" qo'li bo'lgan bemorlar OSSI ning qiymati 133,62±2,63% ga teng bo’lib, bu «zo’riqish» yuklar ostidagi qiymatidan 114,40±2,18 % dan, ya’ni 14,4% ni ko'pga teng. «zo’riqish» yuklar paytida, chakka mushaklar ustidan chaynov mushagining ustunligi ba'zi mushaklarning boshqalarga kompensatorlik o'rnini bosuvchi ishi tufayli kamayadi. Natijada, ChMSI va XChMSI indekslarini tenglashib, u insonning tayanch – harakat tizimi pastki jag'ning barqarorlashuvi tufayli «zo’riqish» yuklar paytida muvozanatli ishlashga intilishi bilan tasdiqlanadi. Oldinga o'tishda «zo’riqish» yuk hosil bo'ladi.

Jag'larning markaziy okklyuziyasidagi tish qatorlarining maksimal kontaktiga erishilgunga qadar yopish vaqtida o'ng "yetakchi" qo'li bo'lgan bemorlar PJSYoI indeksi 108,35±2,41% ga teng bo’lib, bu «zo’riqish» yuklar ostida PJSYoI ga nisbatan 5,6% kam (114,78±2,12%). Bu yuklamalarni bajarishda jag'ning oldinga siljishini ko'rsatadi. Pastki jag' okklyuzion o'qining aniqlanishi va tekislanishi uchun o’qni izlaydi va yangi hosil bo’lgan okklyuziyani shakllantirishga harakat qilishini ko’rsatadi.

Tish qatorlarining markaziy okklyuziyasida tish maksimal darajada kontaktida chap "yetakchi" qo'lli o’smirlarda elektromiyografik o'rganish natijalariga asosan chap va o'ng tomondagi chakka va chaynov mushaklarining bioelektrik faolligi "stressli" yuklarda va chaynashda elektromiyografiya ma'lumotlariga nisbatan oshganligini ko'rsatdi (3,6-jadval). Chap tomonlama chakka va chaynov mushaklarining o'rtacha amplituda qiymatlari o'ng tomonda tomonlama

chakka va chaynov mushaklarining o'rtacha amplituda qiymatlaridan ko'proqligi aniqlandi.

Jag'larning markaziy okkluziyasida tish qatorlarining maksimal kontaktiga erishilgunga qadar yopish vaqtida chap "yetakchi" qo'l bilan bemorlar o'ng chakka mushagining Acp qiymati 213.81±2.59 mkV ga teng bo'lib, bu jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal aloqasiga erishilgunga qadar yopilish vaqtida chap "yetakchi" qo'l bilan bemorlar chap chakka mushagining Acp qiymatidan (217,67±2,08 mkV) sezilarli darajada kam bo'lmagan. Yopilish paytida o'ng chaynov mushagining Acp qiymati jag'larning markaziy okklyuziyasida tish qatorlarining maksimal kontaktiga erishish holatida 246,39±2,48 mV ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich chap chaynov mushagi Acp qiymatidan (257.21±2.11 mkV) 4,2% ga (3.2.4-rasm) kam bo'lgan. O'rganilgan mushaklarni chap "yetakchi" qo'l bilan bo'lgan shaxslarda solishtirganda, chap chaynov mushagining Acp qiymatlari va chap chakka mushagining Acp qiymatlari o'ng chaynov mushagi va o'ng chakka mushagi Acp qiymatlaridan katta ekanligi ma'lum bo'ldi.

Shunday qilib, elektromiografiya bo'yicha chaynov va chakka mushaklarini tekshirib, ovqatlanish odatlari, yumshoq ovqatlarni iste'mol qilish sut emizishidan boshlab, chaynov mushaklarning rivojlanishi va shakllanishida muhim rol o'ynaydi, deb aniqlandi. Bu esa o'z navbatida kelgusida chaynash amali bilan shug'ullanuvchi "ishchi segment"ga yuklamasining ko'chib ketishi tabiatiga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Астанов, О. М. (2023). Чакка-пастки жағ бўғими касалликларида комплекс даволаш усулларининг самарадорлигини баҳолаш. Журнал стоматологии и краниофациальных исследований, 4(2).

2. Астанов, О. М. (2022). Improving the healing of the jaw is a pain syndrome of the lower jaw associated with a number of dental defects. Журнал стоматологии и краниофациальных исследований, 3(1).

3. Астанов, О. М. (2022). Hissiy buzilishi mavjud bo 'lgan bemorlarda chakka pastki bo 'g 'imi kasalliklarini davolash usullari. Журнал стоматологии и краниофациальных исследований, 3(4).

4. Astanov O. M., Gafforov S. A. Diagnosis and Treatment of Patients with Maxillary-Mandibular Joint Dysfunction without Pathology of Inflammatory-Dystrophic Origin // Annals of the Romanian Society for Cell Biology. Romanian, - 2021. – Vol. 25, Issue 1, 2021, P. 5721-5737. (Scopus Q2)

5. Astanov O.M. Diagnosis of patients with temporomandibular joint pain dysfunction syndromes // "International congress on modern education and untegration" India, – 2020. Vol.5, P.137-139.

6. Astanov O.M. Morphological structure and biomechanics of the temporomandibular system // International conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development. 28 December. Morocco, - 2021. P.62-63

7. Astanov O.M. The morphological structure and biomechanics of the temporomandibular system // Novateur publications Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. India, – 2021. 4230 VOL. 7, P. 184-187.

8. Astanov O.M. Tish qatorlari nuqsoni bilan bog‘liq chakka pastki jag bo‘g‘imi og‘riqli sindromini davolashni takomillashtirish // Jurnal stomatologii i kraniofatsialnых issledovaniy. Samarkand, – 2022. – №1(03). – S.60-64.

9. Astanov O.M. TMJ dysfunction a fairly common pathology // Actual problems of children’s dentistry scientific practical conference. International Engineering Journal For Research & Development. India, - 2020. P.8-9.

10. Astanov O.M., Gaffarov S.A. Chak-statistical analysis of dental examinations of activity disorders in the lower jaw // World Bulletin of Social Sciences. Germaniya, – 2021. Vol. 3. P. 129-132. (Impact factor = 7,545)

11. Astanov O.M., Gafforov S.A. Chakka – pastki jag‘ bo‘g‘imi faoliyati buzilishidagi og‘riqli simptomlarini kompleks davolash usullari // Metodicheskie rekomendatsii. – Buxoro, - 2021. 16 b.

12. Astanov O.M., Gafforov S.A. Tish qatori va chaynov yuzasi nuqsonlari asoratidan shakllangan chakka – pastki jag‘ bo‘g‘imi faoliyatidagi og‘riqli sindromlarga tashxis qo‘yishni mukammallashtirish // Metodicheskie rekomendatsii. – Buxoro, - 2021. 16 b. Gafforov S.A.,

13. Astanov O.M., Idiev G.E., Chin-The Algorithm of Diagnosis in Pathologies of Lower Jaw Activity and the Effectiveness of Komplex Treatment Methods // Middle european scientific bulletin. Czechia, – 2021. Vol.16, P.106-118.

14. Астанов О.М. Диагностики и лечения болных с дисфункции высочно-нижнечелюстного сустава без патологии восполительно-дистрофические приосхождение // “Actual problem spediatric dentistry” – Бухара, - 2021. P. 17-20

15. Астанов О.М. Дисфункции высочно-нижнечелюстного сустава без патологии восполительно-дистрофические происхождение // Научно-практической конференции «Актуалные проблемы стоматологии». Фергана, - 9 – 2021 г. С.21-22.

16. Гаффоров С.А., Астанов О.М. Диференциальная диагностика больных с синдромами болевой дисфункции височно-нижне челюстного

сустава // Тиббиётда янги кун. Ташкент, - 2020. – №.3 (31). – С.289-295. (14.00.00, №22)

17. Гаффоров С.А., Астанов О.М. Методы диагностики и лечения больных с дисфункцией ВНЧС // Stomatologiya. Ташкент, – 2020. – №.4 (81). – С.52-55. (14.00.00, №12)

18. Гаффоров С.А., Идиев Г.Э., Астанов О.М. Междисциплинарный подход к лечению пациентов с синдромом болевой дисфункции высочно-нижнечелюстного сустава // Universum: Медицина и фармакология. Россия, – 2021. – №. 11 (82). – С.10-18.

CYTOKINE LEVELS IN HIV-INFECTED CHILDREN WITH VIRAL DIARRHEA

Sh.Z. Otajanov
Urgench branch Tashkent medical academy, Urgench, Uzbekistan

Actuality. Diarrhea occurs in 30-60% of patients with HIV in developed countries, while in low- and middle-income countries, nearly 90% of people living with HIV suffer from diarrhea. Intestinal infections are considered the primary cause of diarrhea in these regions [Wondmieneh A, Gedefaw G, Alemnew B. *Intestinal parasitic infections and associated factors among people living with HIV/AIDS in Ethiopia*].

The aim of the study was to investigate changes in cytokine levels in children with viral diarrhea who are infected with HIV.

Materials and methods. The study was conducted from 2020 to 2024 at the Tashkent city specialized Infectious diseases hospital under the Republican AIDS Center. A total of 110 pediatric patients with HIV infection and viral diarrhea were selected for the study.

Results. An analysis of cytokine levels in patients revealed a decrease in the levels of IFN-alpha and IFN-gamma, which are essential components of innate antiviral immunity, in 77% and 67% of cases, respectively. An increase in IL-1beta, a marker of intoxication, was recorded in 69% of cases.

Conclusion. The decrease in cytokine levels (IFN-α, IFN-γ) and the increase in interleukin 1-beta levels indicate the progression of an acute infectious process and a deficiency in the adaptive interferon system. These findings suggest the need for interferon therapy as a treatment approach. This study underscores the importance of monitoring cytokine profiles in HIV-infected children with viral diarrhea to better understand disease mechanisms and develop targeted therapeutic approaches.

IMMUNOLOGICAL CHANGES IN HIV-INFECTED CHILDREN WITH VIRAL DIARRHEA

Khudaykulova G.K., Muminova M.T., Sh.Z. Otajanov,
Urgench branch of Tashkent medical academy, Urgench, Uzbekistan

Actuality. Diarrhea is a common condition among 30–60% of HIV-infected patients in developed countries, whereas in low- and middle-income countries, almost 90% of individuals with HIV suffer from diarrhea. Intestinal infections are the main cause of diarrhea in these populations [Wondmieneh A, Gedefaw G, Alemnew B. Intestinal parasitic infections and associated factors among people living with HIV/AIDS in Ethiopia. PLoS One. 2020].

The aim of the study. To investigate the immunological changes in HIV-infected children with viral diarrhea.

Materials and Methods. The study was conducted from 2020 to 2024 at the Republican AIDS Center and the Specialized Infectious Diseases Hospital of Tashkent. **Study sample**: 110 HIV-infected children diagnosed with viral diarrhea.

Results. Immunological Indicators: Moderate immunosuppression (CD4 count: 350–499 cells/μL): observed in 24.7% of cases. Severe immunosuppression (CD4 count: 200–349 cells/μL): 2.2 times more frequent compared to moderate immunosuppression ($P<0.05$). Viral Load Analysis:- 15.5% of patients (17 out of 110) had undetectable HIV RNA in their blood. - 77.3% of patients (85 out of 110) had a viral load of less than 1000 copies/mL.

Higher viral loads: - 1000–10,000 copies/mL: observed in 1.8% of cases. -10,000–100,000 copies/mL: 1.8% of cases. - 500,000–1,000,000 copies/mL: 1.8% of cases. Differences in higher viral load groups were not statistically significant ($P>0.05$).

Conclusion. Immunosuppression levels vary significantly among HIV-infected children with viral diarrhea, with severe immunosuppression being 2.2

times more frequent than moderate levels. Viral load data showed that most patients had low viral loads (<1000 copies/mL), while higher viral loads (>10,000 copies/mL) were rare but present. The findings emphasize the importance of continuous monitoring of CD4 counts and viral load to assess the progression of immunosuppression and its clinical impact on these patients. This study provides valuable insights into the immunological status and viral dynamics of HIV-infected children with diarrhea, highlighting the need for targeted interventions and improved management strategies.

WISDOM IN "BYGONE DAYS": A LINGVOCULTURAL ANALYSIS OF ABDULLA QADIRI'S WORK

Kuchkorova Dilnozakhon Shukhratbekovna, Phd doctorant of National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. Mobile: +998 97 277 00 93. Mail: adilnoza920@gmail.com

Abstract. Abdulla Qadiri, one of the pioneering figures in Uzbek literature, holds a unique place in the cultural and intellectual history of Central Asia. His work, particularly the novel "Bygone Days" ("O'tgan Kunlar"), offers profound insights into the complexities of human relationships, social norms, and moral dilemmas. This article explores the themes of wisdom in Bygone Days, analyzing the linguistic and cultural elements that contribute to its enduring legacy. Written in the early 20th century, Bygone Days reflects a period of transition in Uzbek society, marked by the decline of traditional feudal structures and the rise of modernist ideologies. This era witnessed the tension between old and new, with individuals grappling to reconcile deeply rooted customs with emerging societal changes. Qadiri masterfully captured this dynamic, embedding it within the personal and societal conflicts faced by his characters.

Key words: wisdom, linguistic elements, lingvocultural analysis, culture, proverbs.

Introduction. Abdulla Qadiri (1894–1938) was a prominent Uzbek writer, playwright, and one of the founders of modern Uzbek literature. His novel "Bygone Days" (O'tgan kunlar), written in 1925, is widely regarded as the first full-fledged Uzbek novel. It is a classic of Uzbek literature, notable for its portrayal of the social and cultural life of 19th-century Uzbekistan under the rule of the khanates. The novel tells a love story set against a backdrop of political intrigue and societal norms. Through vivid characters and detailed depictions of traditional Uzbek life, Qadiri highlighted issues such as love, loyalty, and the impact of rigid social customs on personal freedom. Bygone Days remains a cornerstone of Central Asian literature, celebrated for its contribution to Uzbek identity and literary heritage.

